**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

**NABIJON QODIROV**

# MAQOM CHOLG‘U IJROCHILIGI

***(G‘ANIJON TOSHMATOVNING IJODI MISOLIDA)***

*Musiqa sohasidagi oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma*

**TOSHKENT-2020**

Qodirov N. Maqom cholg‘u ijrochiligi (G‘anijon Toshmatovning ijodi misolida). O‘quv qo‘llanma.-T.: “Musiqa”.2020

Ushbu o‘quv qo‘llanmada O‘zbekiston musiqa san’atining muhim yo‘nalishi maqom cholg‘u ijrochiligi masalalari O‘zbekiston xalq artisti G‘anijon Toshmatovning g‘ijjak cholg‘u ijrochilik mahorati va bastakorlik ijodi misolida tahlil qilib berilgan. O‘quv qo‘llanma oliy musiqa ta’limi muassasalarining talabalari, jo‘rnavozlari va o‘qituvchilariga mo‘ljallangan.

**Mas’ul muharrir:**

**Taqrizchilar:**

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Kengashi tomonidan 2020 yil 5-mayda nashrga tavsiya etilgan. 8-sonli bayonnoma

“Musiqa” nashriyoti

## MUNDARIJA

**KIRISH**

**1-BOB. MAQOM LOCAL CHOLG‘U IJROCHILIGINING METODOLOGIK ASOSLARI**

**1.1 Maqom cholg‘u ijrochiligining ilmiy masalalari**

**1.2 Maqom cholg‘u ijrochiligining milliy tajribasi**

**1.3 Maqom cholg‘u ijrochiligi shakllari**

**2- BOB. MAQOM LOCAL CHOLG‘U IJROCHILIGI XUSUSIYATLARI**

**2.1 Maqom local cholg‘u ijrochiligi omillari**

**2.2 Maqom local cholg‘u ijrochiligi tadrijida g‘ijjak cholg‘usi**

**3-BOB. MAQOM LOCAL CHOLG‘U IJROCHILIGIDA G‘ANIJON TOSHMATOVNING G‘IJJAK CHOLG‘U IJROCHILIK MAHORATI**

**3.1. G‘anijon Toshmatovning hayoti va faoliyati**

**3.2. G‘anijon Toshmatovning ijodiy merosi**

**3.3. G‘anijon Toshmatovning cholg‘u ijrochilik san’ati**

**3.4. G‘anijon Toshmatov ijrochilik mahoratining maqom cholg‘u ijrochiligi rivojida tutgan o‘rni**

**4-BOB. OLIY MUSIQA TA’LIMI TIZIMIDA MAQOM LOCAL CHOLG‘U IJROCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

**4.1 Oliy musiqa ta’limi tizimida maqom local cholg‘u ijrochiligini o‘rganish metodikasi**

**4.2 Oliy musiqa ta’limi tizimida G‘anijon Toshmatovning g‘ijjak cholg‘u ijrochilik mahoratini o‘zlashtirish usullari**

**ILOVALAR**

**1-ilova: G‘anijon Toshmatov ijro etgan asarlar**

**2-ilova: G‘anijon Toshmatov yaratgan asarlar**

**TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

**GLOSSARIY**

# KIRISH

O‘zbekiston musiqa san’ati ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi yangi bosqichida milliy va jahon musiqa san’atining tajribaviy tendensiyalari asosida rivojlanib bormoqda. Bu borada keyingi yillarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining bir qator Qarorlari va Farmonlari dasturulamal bo‘lmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “milliy musiqa san’atini yangi bosqichda rivojlantirish” vazifasi qo‘yilgan. Bu vazifa O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish Harakatlar strategiyasida 2021 yilga qadar amalga oshiriladigan ustuvor maqsad sifatida belgilangan. Shu jihatdan mazkur vazifani amalga oshirish musiqa ta’limining sifat va samaradorligiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabr “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gu PQ-3391-sonli Qarorida belgilanganidek, maqom ijrochiligi masalalarini ilmiy tadqiq etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu masala bilimli va yuksak kasbiy malakaga ega maqom sozandalarini tayyorlash bilan ham bog‘liqdir.

Hozirgi musiqa ta’limimiz rivojida yangicha yondoshuvlar va samarali o‘qitish usullariga asoslanish jarayoni kechmoqda. Bu jarayonda musiqa san’atining *maqom cholg‘u ijrochiligi uslublarini* o‘rganish va o‘zlashtirish innovatsion xususiyatga egaligi bilan diqqatni tortadi. Mazkur yo‘nalishning maqom cholg‘u ijrochiligi ayniqsa, o‘ziga xos usullar, tajribalar va mahoratlarga egaligi bilan ajralib turadi.

Maqom cholg‘u ijrochiligining uslublari uzviy musiqa ta’lim tizimi-bolalar musiqa va san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, o‘rta maxsus va oliy musiqa ta’limi muassasalarida o‘rganib kelinmoqda. Endigi vazifa mazkur ta’limning sifat va samaradorligiga erishishdir. Chunki sohada sifat va samaradorlik masalasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida qat’iy kun tartibiga qo‘yildi. Ushbu o‘quv qo‘llanma ana shu ehtiyojlarning hosilasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2019 yilda tasdiqlangan “An’anaviy

cholg‘ular” Namunaviy dasturi asosida ishlab chiqilgan Ishchi o‘quv dasturiga binoan yaratildi.

O‘zbek milliy musiqa san’ati xilma-xil janrlar, yo‘nalishlar va ijrochilik uslublariga boy bo‘lib milliy qadriyatlar, an’analar hamda xalqning ma’naviy tafakkuri negizida zamon bilan hamohang tarzda sayqal topib kelgan. Bu bebaho meros o‘tmishdagi hassos bastakorlar, mohir sozandalar va zabardast xonandalarning ijod mahsuli sanalib amaliyotda ularga xos ijrochilik an’analari, turli xil lokal (mahalliy) uslublar paydo bo‘lgan va rivojlanib kelgan. Hozirgi davrimizda ham ana shunday ijodiyotni o‘zbek milliy musiqa san’atimizning bir qator yetuk namoyandalari davom ettirib, o‘z ijod namunalari bilan musiqa san’atimiz tarkibidan va xalqimiz dilidan munosib o‘rin egallashga erishmoqdalar. Ulardan Abduhoshim Ismoilov, Shavkat Muhammedov, O‘lmas Rasulov, Isroiljon Vahobov, Hasan Rajabiy, Tohir Rajabiy, Mahmudjon Tojiboev, Mahmudjon Yo‘ldoshev, Munojat Yo‘lchieva, Abdulahad Abdurashidov, Zamira Suyunova, Abdurahmon Xoltojiev, Ahmadjon Dadaev, Rifatilla Qosimov, Malika Ziyaeva, Komila Bo‘rieva kabi yana ko‘plab san’atkorlarning ijodiy faoliyatlari tahsinga sazovordir.

Milliy musiqa merosimizni shakllanishi, ravnaq topishi va ularni bugungi kungacha yetib kelishida o‘zlarining fidokorona mehnatlari hamda samarali ijodlari bilan ulkan hissa qo‘shgan ustoz san’atkorlarning ijro maktablari va uslublaridan hozirgi zamon musiqa san’ati sohasida yosh ijrochilarni tarbiyalash uchun ibratli qo‘llanma sifatida foydalanib kelinmoqda. Ana shunday ustoz san’atkorlardan Ota Jalol Nosirov, Ota G‘iyos Abdug‘aniev, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Yunus Rajabiy, To‘xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, G‘anijon Toshmatov, Nabijon Hasanov, Doni Zokirov, Saidjon Kalonov, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Hojixon Boltaev, Muxtorjon Murtazoev, Muhammadjon Mirzaev, Orifxon Hotamov, Turg‘un Alimatov, Komiljon Otaniyozov, G‘ulomjon Hojiqulov kabi yana ko‘plab san’atimiz fidoiylarini yuksak ehtirom bilan tilga olishimiz mumkin. O‘zbek musiqa san’atining bu buyuk darg‘alari milliy musiqa ijrochiligining rang-barang ijodiy xususiyatlarini chuqur

egallaganliklarini hamda ularning naqadar teran tafakkur egasi va o‘z kasbining yetuk ustasi bo‘lganliklarini e’tirof etishimiz lozim.

Mazkur masalalarning barchasi o‘quv qo‘llanmada nazariya, amaliyot va ijrochilik integratsiyasi uyg‘unligi asosida yoritildi.

O‘quv qo‘llanmaga doir fikr-mulohazalaringizni kutib qolamiz.

# 1-BOB MAQOM CHOLG‘U IJROCHILIGINING METODOLOGIK ASOSLARI

## 1.1 Maqom cholg‘u ijrochiligining ilmiy masalalari

*Mashg‘ulotning maqsadi:* bo‘lajak maqom sozandalariga maqom cholg‘u ijrochiligining ilmiy masalalari bo‘yicha tushuncha berish.

***

**“Maqom cholg‘u ijrochiligi” atamasi.** Mazkur atama o‘ziga xos mazmunga ega bo‘lib, o‘zbek maqom ijrochiligida yirik yo‘nalishni tashkil etadi. Unda cholg‘ular turlari va imkoniyatlaridan foydalanib, maqom ijrochiligini amalga oshirish nazarda tutiladi. Bu atama “maqom xonandaligi”, “maqomshunoslik” va “cholg‘ulashtirish” kabi atamalar bilan uzviy bog‘liq holda idrok etiladi.

Hozirgi zamon o‘zbek maqom cholg‘u ijrochiligida tanbur, dutor, rubob, chang, qonun, g‘ijjak, nay va doira kabi yigirmaga yaqin cholg‘ular qo‘llanilmoqda. Shu jihatdan maqom cholg‘u ijrochiligimiz ko‘p asrlik tajribaning hosilasi bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bunday xususiyatlarning asosiylari quyidagilardir:

- Shashmaqom va Xorazm maqomlarining cholg‘u qismlarini ijro etish;
- Shashmaqom va Xorazm maqomlarining ashula qisamlarini va Farg‘ona Toshkent maqom yo‘llarini ijro etish;
- Maqom xonandalariga jo‘rnavozlik qilish;
- Maqom ijrochiligiga imkon qadar cholg‘ularning keng turlarini qo‘llash.

Mana shu xususiyatlari bilan “maqom cholg‘u ijrochiligi” atamasi ma’no-mazmun kasb etadi. Maqom cholg‘u ijrochiligi maqom ijrochiligining negizlaridan biri sifatida idrok etilishi kerak.

Bundan tashqari “maqom cholg‘u ijrochiligi” atamasida Surnay maqom yo‘llari, Dutor maqomlari va yovvoyi maqom yo‘llarini ijro etish ham ko‘zda tutiladi. Shu sababli bo‘lajak maqom sozandali bu atamani keng ma’noda tushunishi va uning ilmiy-amaliy atama ekanligini bilishi kerak.

**Maqom cholg‘u ijrochiligi metodologiyasi.** “metodologiya” atamasining ma’nosi “hujjat, dalil, asos, omil” demakdir.[1]

---

[1] Pedagogika fanidan izohli lug‘at. Tuzuvchilar J.Hasanboyev va boshq.-T. “Fan va texnologiya”. 2009. 44-bet.

Shu ma’noda maqom cholg‘u ijrochiligi muhim metodologik asoslarga ega. Bu metodologik asoslarning muhumlari quyidagilardir:

- davlat musiqa ta’limi standartlari;
- o‘quv dasturlari va adabiyotlari;
- maqom cholg‘u ijrochiligi manbalari;
- maqom cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar;
- maqom cholg‘u ijrochiligi milliy tajribasi.

Mazkur metodologik asoslar maqom cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha bilim olish, uni o‘rganish va o‘zlashtirishning tayanchi hisoblanadi. Misol uchun “maqom cholg‘u ijrochiligi manbalari” masalasini olaylik. Bu manbalar ming yillik me’rosni qamrab oladi. Shu jihatdan uni ikki yirik davrga bo‘lish mumki:

1) qadimgi davr (XI-XIX asrlar);
2) yangi davr (XX-XXI asrlar).[1]

Bu o‘rinda eslatma tarzida aytib o‘tish lozimki, maqom cholg‘u ijrochiligi ilk manbasiga XI asrda duch kelamiz. Gap shundaki, Unsur-ul-maoliy Kaykovus (XI asr) “Qobusnoma” asarida bu davrda Iroq, Navo kabi maqomlar ijrosi muqimlashgani va ularning ijrosida Rud, Tanbur singari cholg‘ular keng qo‘llanilishini yozadi.[2] Shu sababli biz maqom cholg‘u ijrochiligi manbalari XI-XIX asrlar davomida yaratib kelinayotganligini ta’kidlaymiz.

E’tibor berilsa maqom cholg‘u ijrochiligi metodologiyasini bilish bo‘lajak maqom sozandalarining nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakaviy ijrochilikni kutilgan darajada o‘zlashtirishiga asos bo‘ladi. Maqom sozandalarining metodologik asoslar bilan qurollanishi eng muhim masalalardan biridir. Professor-o‘qituvchilar va jo‘navozlarning bu masalaga bo‘lajak maqom sozandalarini o‘qitish jarayonida alohida e’tibor berishi taqozo etiladi. Negaki maqom cholg‘u ijrochiligi metodologiyasi bo‘lajak maqom sozandalarini zamonaviy talablarga binoan tayyorlashning asosidir.

**Maqom cholg‘u ijrochiligi ta’limi.** O‘zbekistonda maqom cholg‘u ijrochiligi ta’limi uzviylik, izchillik va yagonalik tamoyillari asosida tashkil etilgan. Bu ta’lim uch bosqichda amalga oshirilmoqda:

---

[1] mazkur masala O‘quv qo‘llanmamizning 2-bobida batafsil yoritiladi.

[2] Kaykovus. Qobusnoma.-T.: “O‘qituvchi”.2006.149-150-betlar.

1) umumiy ta’lim (umumta’lim maktablarining 6-7 sinflarida hamda bolalar musiqa va san’at maktablarida);

2) o‘rta maxsus ta’lim (ixtisoslashtirilgan o‘rta maxsus maktab internatlarda);

3) oliy musiqa ta’limi (O‘bekiston davlat konservatoriyasi, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institute hamda oliy pedagogika o‘quv yurtlarida).

*Umumiy ta’lim* boshlang‘ich xarakterda bo‘lib, unda o‘quvchilarga maqom cholg‘u ijrochiligi to‘g‘risida ma’lumot beriladi, cholg‘ular bilan tanishtiriladi, o‘quvchilarning layoqat va xohish-istagiga asosan cholg‘u ijrochiligini o‘rganishga yo‘naltiriladi hamda bolalar musiqa va san’at maktablarida esa cholg‘ular turlari bo‘yicha maqom cholg‘u ijrochiligi ko‘nikmasi shakllantiriladi.

*O‘rta maxsus ta’limda* o‘quvchilarga maqom cholg‘u ijrochiligi asoslari bo‘yicha bilim beriladi, ularning yakkanavoz va maqom ansambl ijrochilik malakasi tarkib toptiriladi.

*Oliy musiqa ta’limida* malakali va kasbiy yetuk maqom sozandalari tayyorlanadi, ularning individual ijrochilik uslubi va ijro mahorati hosil qilinadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday maqom cholg‘u ijrochiligi kutilgan samarani berayotganligini ta’kidlab o‘tish joiz. Eng asosiysi-bu ta’limda o‘qitish jarayoni nota asosida va zamonaviy pedagogik texnologiyalarga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Masalan, nota asosida o‘qitish maqom kuylarini tez o‘zlashtirish va ularning tuzilishi ya’ni taktlar, xona, bozgo‘y hamda avjlardan iboratligini umumta’lim bosqichidayoq o‘zlashtirib olish imkonini bermoqda. Shu jihatdan misol tariqasida Shashmaqom Buzruk maqomining Tasnifi Buzruk asariga e’tibor bering:

# TASNIFI BUZRUK.

M. M. ♩ = 84 - 88




58
63
5-xona
68
73
78
84
Bozgo'y
90
6-xona
95
100
105
110


115
121
Bozgo'y
127
7-xona
132
136
141
146
151
156
Bozgo'y
162
167
8-xona


172
176
180
185
190
195
200
Bozgo'y
206
211

Diqqat qilinsa, asarning doira usuli 2/4 hissali bo‘lib, u sakkiz xona va sakkiz bozgo‘ydan iborat. Asarni o‘zlashtirish unchalik murakkab emas.

Shunday qilib maqom cholg‘u ijrochiligining ilmiy masalalarini o‘zlashtirish bo‘lajak maqom sozandalari uchun muhim ahamiyatga egadir.

**Topshiriq:**

Ishoq Rajabovning “Maqomlar” asaridan (Toshkent, 2006) xona, bozgo‘y, takt va avj atamalari ma’nosini o‘zlashtiring.

## 1.2 Maqom cholg‘u ijrochiligining milliy tajribasi

**Mashg‘ulotning maqsadi:** bo‘lajak maqom sozandalariga maqom cholg‘u ijrochiligining milliy tajribasi bo‘yicha ko‘nikma berish.

***

**Maqom cholg‘u ijrochiligining qadimgi davri.** Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, biz o‘zbek maqom cholg‘u ijrochiligini tajribasini yirik ikki davrga bo‘lamiz va qadimgi davrini XI-XIX asrlar tashkil qiladi. Bu o‘rinda mazkur davrning eng muhum xususiyatlariga e’tiboringizni tortamiz.

Maqom cholg‘u ijrochiligi ilk davrlardayoq muayyan tartib-qoidalarga asosan amalga oshirilgan. Jumladan, bu masalada Unsur-ul-maoliy Kaykovus (XI asr) “Qobusnoma” asarida fikr yuritadi. U deydiki, “Hamma vaqt og‘ir yo‘llarni chertmang”.[1] Bu fikrdan maqsad maqom sozandalari vaqt, makon va tinglovchi omillarini hisobga olish kerakligini uqtirishdir. Chunki bu omillar maqomlar ijrosining tinglovchilarga kutilgan darajada yetib borishiga asos bo‘ladi. Shu tariqa XI asrdayoq maqom cholg‘u ijrochiligining mazkur omillrga tayangan muayyan tartib-qoidasi yuzaga kelgan (1-chizma):




[1] Kaykovus. Qobusnoma.-T.: “O‘qituvchi”.2006.148-bet.

Bu hol maqomlar ijrochiligining qadimiyligini yana bir ko‘rsatuvchi dalildir.[1]

XIII asrda Safiuddin Urmaviy tomonidan o‘n ikki maqom tizimlashtirilgach ham bunday tartib qoidalar maqom cholg‘u ijrochiligida yanada rivojlanib bordi. Bu jarayon ayniqsa, XIV-XVII asrlar o‘zbek maqom cholg‘u ijrochiligida keng ko‘lamda kechdi. Misol uchun, Najmiddin Kavkabiy-Buxoriy (XVI asr) “Risolai musiqiy” asarida maqom cholg‘u ijrochiligining ( umuman, maqom ijrochiligining) vaqt omili to‘g‘risida quyidagi tavsiyani beradi:

| Maqomlar | | Ijro etish vaqti |
|---|---|---|
| 1. Rohaviy | - | subh- Quyosh chiqish oldidan; |
| 2. Ushshoq | - | Quyosh chiqqandan so‘ng; |
| 3. Rost | - | Choshgoh vaqtida; |
| 4. Iroq | - | Peshin- Kun o‘rtasida; |
| 5. Buzruk | - | Quyosh botishi oldidan; |
| 6. Busoliq | - | Namozi digar (asr) vaqtida; |
| 7. Zangula | - | Quyosh ufqqa bosh qo‘ygan vaqtda; |
| 8. Navo | - | Shom namozi vaqtida; |
| 9. Zirafkand | - | Tun quyuqlashgan vaqtda; |
| 10. Husayniy | - | Tun o‘rtasida; |
| 11. Hijoz | - | Uyquga yotishdan oldin; |
| 12. Isfahon | - | Subhdan avval.[2] |

O‘n ikki maqom Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga singib ketganligi ma’lum, shu ma’noda bu kabi vaqt omillari to‘g‘risida berilgan tavsuyalar o‘zbek maqom ijrochilari tomonidan ham qabul qilinganini idrok etish qiyin emas. Eng asosiysi-tavsiya etilgan vaqtlarda maqom ijrochisining jismoniy va ruhiy tayyorlik lahzalari hisobga olinganligi sir emas. Shu jihatdan Shashmaqomning Buzruk maqomidagi Tarje’ asarini maqom sozandalarining jismoniy va ruhiy jihatdan tayyor vaqtida ijro etishni tajriba qilib ko‘rish mumkin:

---

[1] Qarang: Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir.-T.: O‘zbadiiynashr. 1963. Shu muallif. Maqomlar.-t.: YUNESKO. 2006. G‘ofurbekov T. Bastakorlik ijodiyoti: tarixi, tahlili, taqdiri.-T.: “Muharrir”.

2 Кавкабий Н. Трактат о музыке.// Музыкальная эстетика стран Востока. Сборник тексты.-М.: «Наука». 1967.-с.235.

# TARJE'I BUZRUK




67
74
5-xona
80
Bozgo'y
86
93
6-xona
100
106
111
7-xona
119
125
130
Bozgo'y




Asarning doira usuli 2/4 hissali va u sakkiz xona hamda besh bozgo‘ydan iborat ekanligini eslatib o‘tish joiz. Umuman, o‘zbek maqom cholg‘u ijrochiligining qadimgi davrida vaqt, makon va tinglovchi omili o‘ziga xos xususiyat hisoblanadi. Aynan mana shu uch masalaga diqqat qilish bugungi maqom cholg‘u ijrochiligini rivojlantirib boorish asoslaridan biri hisoblanishi mumkin.

**Maqom cholg‘u ijrochiligining yangi davri.** Bizning yondoshuvimizga ko‘ra, oz‘bek maqom cholg‘u ijrochiligining yangi davri XX-XXI asrlarni qamrab oladi. Bunga XX asr boshlaridan boshlab Yurtimizda musiqa bilim yurtlarining tashkil etilishi va ta’lim jarayonining  nota asosida yo‘lga qo‘yilishi sabab bo‘lgan.

Bu yangi davr o‘zbek maqom cholg‘u ijrochiligida quyidagi uch omil muhim o‘rin tutadi (2-chizma):




Mazkur omillar XX-XXI asrlar o‘zbek maqom cholg‘u ijrochiligining rovojlqnib borishida muhim tayanch bo‘lmoqda.

Albatta, XX asr o‘zbek maqom cholg‘u ijrochiligida murakkab davrlar ham kechdi. Bunga XX asrning 40-yillari atrofiga kelib an’anaviy Ustoz-shogird sozandalarining vafot etishi, 50-yillarda sobiq Sho‘ro davlatining o‘zbek maqomlariga bo‘lgan salbiy munosabati va rekonstruksiya qilingan cholg‘ularning imkoniyatiga qarashlarning turlicha bo‘lishi sabab bo‘ldi. Misol uchun, keksa maqom sozandalarining fikricha, rekonstruksiya qilingan cholg‘ular maqom kuylariga xos bo‘lgan nolish, qochirim kabi bezaklarni to‘laqonli berish imkoniyatiga ega emas, shuningdek, zamonaviy nota yozuvida maqom asarlariga xos bo‘lgan xususiyatlarni ham to‘liq ifodalashning imkoniyatlari ham yo‘q.

Ayni paytda, musiqa ta’limining rivojlanib borishi, o‘zbek maqomlarining nashr etilishi, maqom ansambllarining tuzilishi va musiqa ma’lumotiga ega mahoratli maqom sozandalarining yetishib chiqishi bu murakkablikni bartaraf eta bordi.

Hozirgi zamon maqom cholg‘u ijrochiligida keying uch yil davomida bo‘lgan jonlanish muhim o‘rin tutmoqda. Bunda professional maqom sozandalarini tayyorlash yo‘nalishi zamon talablari asosida rivojlanib borayotganligi muhim tendensiyadir.

**Maqom cholg‘u ijrochiligining istiqboli.** O‘zbek maqom cholg‘u ijrochiligi o‘ziga xos rivojlanish tendensiyalariga ega. Bu tendensiya maqom cholg‘u ijrochiligi milliy tajribasida erishilgan yutuqlarni asrash va ijrochilikni zamonaviy talablar asosida rivojlantirib borishga asoslanadi. Shu jihatdan maqom cholg‘u ijrochiligini rivojlantirib borishning istiqbolida uch yo‘nalish muhim o‘rin tutadi. (3-chizma):




Bu istiqbolli yo‘nalishlar va uni amalga oshirish tizimi idrok etilishi kerak. Chunki mazkur masala maqom cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha professional maqom sozandalari tayyorlash va maqom cholg‘u ijrochiligini rivojlantirib borish strategiyasi bilan bog‘liqdir.

Maqom san’ati vakillariyaxshi idrok etishadiki, maqom ijrochiligi ochiq tizim.[1] Biroq, bu xususiyat maqom cholg‘u ijrochiligida to‘liq va hadsiz-hududsiz erkinlikka ega bo‘lish degani emas.

## 1.3 Maqom cholg‘u ijrochiligi shakllari

**Mashg‘ulotning maqsadi:** bo‘lajak maqom sozandalariga maqom cholg‘u ijrochiligining asosiy shakllari bo‘yicha yo‘nalish berish.

*******

---

[1] Qarang: Rajabov I. Maqom asoslari.-T.,1982. Matyoqubov O. Buxoro Shashmaqomiga yana bir nazar.-T.,2014. Ibrohimov O. Maqom va makon.-T., 2006 va h.k.

**Maqom cholg‘u ijrochiligining ansambl shakli.** O‘zbek maqom cholg‘u ijrochiligida o‘ziga xos shakllar tarixan shakllanib kelgan. Ularning asosiylaridan biri *ansambl* ijrochilik shaklidir.

O‘zbek cholg‘ulari tur va sadolanish jihatidan juda boy bo‘lsa-da, lekin sharoit va imkoniyatlardan kelib chiqilib maqom ansambl ijrochiligida ularning muayyan turlari qo‘llanilib kelingan. Misol uchun, professor Abdurauf Fitratning (1884-1938) xabar berishicha, XX asrning 20-yillarida o‘zbek maqom ansambl ijrochiligida ikki tanbur, bir dutor va doira shakli keng qo‘llanilgan, agar tanbur uchta bo‘lsa uchinchi tanbur kamoncha bilan sato sifatida ijro etilgan.[1] Shuningdek, ko‘p hollarda xonandalarning o‘zlari cholg‘ularni ijro etishgan va maqomlarning cholg‘u qismlari ham ular tomonidan ijro qilingan.

XX asrning 30-yillaridan boshlab maqom ansambl ijrochilik shakli takomillashdi va bu sozandalar guruhining tarkib topganligi bilan izohlanadi. Bugungi kunda O‘zbek maqom ijrochiligi ansambllari professional sozandalar va xonandalar guruhlaridan iborat. Sozandalar guruhining xonandalarga jo‘rnavozlik qilishi ustuvor hisoblanadi.

O‘zbek maqom cholg‘u ijrochiligida professional sozandalarning muhim o‘rin tutishi ularning kasbiy jihatdan keng ko‘lamli tarzda tayyorlashni taqozo etadi. Chunki maqom ansambl ijrochiligi ikki jihatdan muhim ahamiyatga ega: 1) sozandalarning mahorati o‘zaro hamkorlik vositasida oshib boradi; 2) maqom cholg‘u ijrochiligining imkoniyatlari va ko‘lami yanada kengayadi.

**Maqom cholg‘u ijrochiligining yakkanavozlik shakli.** Maqom cholg‘u ijrochiligida *Yakkanavozlik* deganda muayyan sozandaning o‘z cholg‘usi vositasida yetakchi ijrochiligi tushuniladi. Misol uchun, Koshg‘ar rubobi cholg‘usi sozandasi bir-ikki cholg‘ular jo‘rligida yakkanavoz ijrochi sifatida faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Maqom asarlari rang-barang xususiyatlariga boyligi bilan muayyan bir cholg‘uga ikki yoki uch cholg‘uning jo‘r bo‘lishini (Masalan, Koshg‘ar rubobi-g‘ijjak+doira; Koshg‘ar rubobi-chang+doira va h.k) taqozo etadi. Chunki maqom musiqa asarlari serjjilo xususiyatlarga boyligi ma’lum.

---

[1] Fitrat. A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi.-T: “Fan”.1993. 48-bet.

O‘zbek maqom cholg‘u ijrochiligining yakkanavozlik shakli muhim imkoniyatlarga egaligi bilan diqqatni tortad; 1) Yakkanavoz ijrochi o‘z mahoratini to‘liq namoyon etadi; 2) maqom cholg‘u ijrochiligi individual ijrochilik uslubi asosida kehgaytirib borish imkonini beradi; 3) mohir maqom sozandalariga ega bo‘lish mexanizmi vujudga keladi. Shu sababli bo‘lajak maqom sozandalarini yakkanavozlikka tayyorlash uchun ularning individual ijro uslubini shakllantirish taqozo etiladi.

**Maqom cholg‘u ijrochiligining havaskorlik shakli**. O‘zbek maqom cholg‘u ijrochiligining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning *havaskorlik* shakliga egaligidir.

Havaskorlik maqom cholg‘u ijrochiligining ikki turi mavjud: 1) musiqa ta’limim muassasalaridagi yoshlar, to‘garaklar, klublardagi va individual guruhlarning ansambllari; 2) tuman, shahar va viloyatlarning maqom ansambllari. Me’yoriy hujjatlarga muvofiq, muayyan talablarga javob beradigan havaskorlik guruhlariga “xalq ansambli” nomi beriladi.

Maqom cholg‘u ijrochiligining havaskorlik shakli bir necha imkoniyatlarga ega: 1) layoqatli yoshlarni tarbiyalash va yo‘naltirish; 2) yoshlar imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish; 3) maqom ijrochiligini ommalashtirish; 4) jamiyat madaniy darajasida maqom san’ati nufuzini ta’minlash.

Shunday qilib maqom cholg‘u ijrochiligi shakllari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni rivojlantirish maqom cholg‘u ijrochiligini rivojlantirishning amaliy mexanizmlari sifatida diqqatni tortadi. Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, maqom cholg‘u ijrochiligining barcha shakllarida faoliyat yuritayotgan ijrochilar layoqat va musyqiy ta’limga egadir. Shu sababli bu ijrochilik shakllarini rivojlantirib borish muhimdir. Mazkur jihatdan musiqa ta’limi jarayonida bo‘lajak maqom sozandalari maqom ijrochiligining barcha shakllari bilan ishlashga ko‘niktirilishi kerak. Chunki bo‘lajak maqom sozandalari kelgusida maqom cholg‘u ijrochilik shakllarida ham faoliyat yuritishi mumkin.

**Topshiriq:**

Maqom cholg‘u ijrochiligi shakllarining har biriga xos xususiyatlarni eslab qoling.

## II BOB. MAQOM LOKAL CHOLG‘U IJROCHILIGI XUSUSIYATLARI

### 2.1 Maqom lokal cholg‘u ijrochiligi omillari

O‘zbekiston musiqa san’atining o‘ziga xos yo‘nalishlari, ijodiy maktablari va professional tajribalari mavjud. Shunday yo‘nalishlardan biri maqom *lokal cholg‘u ijrochiligi* yo‘nalishidir.[1]

“Lokal” so‘zi lotincha bo‘lib “hududiy”, “mahalliy” va “mintaqaviy” ma’nolarini anglatadi.[2] Shu jihatdan bizning yondoshuvimizga ko‘ra, maqom cholg‘u ijrochiligida lokal uslubning uch ko‘rinishi mavjud:

1) mintaqaviy cholg‘u ijrochiligi – muayyan mintaqa cholg‘u ijrochilik san’ati (masalan, Markaziy Osiy cholg‘u ijrochilik san’ati);

2) hududiy cholg‘u ijrochiligi – biror millat yoki xalqning cholg‘u ijrochilik san’ati (misol uchun, o‘zbek cholg‘u ijrochilik san’ati);

3) mahalliy cholg‘u ijrochiligi – bir xalq cholg‘u ijrochilik san’atidagi ichki-hududiy uslublar.[3]

Maqom local cholg‘u ijrochiligi bu uslublarga mos ravishda idrok etiladi. Bizni bu o‘rinda Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari local ijrochilik uslubi va uning mumtoz vakili G‘anijon Toshmatovning (1913-1994) ijodi qiziqtiradi. Shu jihatdan mazkur o‘quv qo‘llanmada Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari cholg‘u ijrochiligining lokal uslubi to‘g‘risida so‘z boradi.

An’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligiga *uch muhim xususiyat* xos:

1) ladintonatsion tuzilish;

2) metroritmik o‘ziga xoslik;

3) formaobrazlilikning originalligi.[4]

Aynan mana shu uch xususiyatga ko‘ra o‘zbek maqom cholg‘u ijrochiligining lokal uslublari belgilanadi. Chunki Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari ijrochiligining mana shu xususiyatlari bilan Shashmaqom va Xorazm maqom yo‘llari ijrochiligidan farqlanib turadi.

---

[1] Qodirov N. G‘ijjak ijrochiligida mahalliy uslublar.-T.: “Musiqa”. 2016. 6-8-bet.

[2] Музыкальный энциклопедический словарь. Главный редактор Г.В.Келбдыш.-М.: “Саветская энциклопедия”. 1990.-с.362.

[3] Mazkur O‘quv qo‘llanmada bizni ana shu uchinchi yo‘nalish xususiyatlari qiziqtiradi.

[4] Ибрагимов О.А. Фергана-Ташкентские макомы.-Т.: “MEDIA LAND” .2006.-с.137.

Maqom lokal cholg‘u ijrochiligi juda *qadimda* shakllangan. Uning ildizlari xalq og‘zaki musiqa ijodiga borib taqaladi.[1] Ayni paytda, musiqa san’atida lokal uslublarning yuzaga kelishi bir jihatdan cholg‘u ijrochiligi bilan bog‘liqdir. Chunki cholg‘ularga xos bo‘lgan xususiyatlar va parda tizimi bir millat (xalq) cholg‘u ijrochiligida turli lokal uslublarning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan. Shu sababli Abu Nasr Farobiy (873-950) “al-Kitob al-musiqa al-kabir” (Musiqa katta kitobi) asarida Xuroson (O‘zbekiston ham kiradi) Tanbur cholg‘usi va Bag‘dod (arab) Tanbur cholg‘usining parda (lad) tizimi va tovush ko‘lamidagi *farqlarni* ko‘rsatib, milliy cholg‘umizni mukammal deb ko‘rsatgan edi.[2] Bu hol ayniqsa, o‘lchov, usul va taktni qamrab oluvchi Sharq iyqo’ nazariyasida yaqqol namoyon bo‘lganligini ta’kidlab o‘tish joiz.[3]

Zero, maqom lokal cholg‘u ijrochiligi masalalari bo‘yicha o‘ziga xos tahlillar mumtoz musiqa manbalari va Ilmiy musiqashunosligimizda yetarli darajada amalga oshirilgan. Misol uchun, X asrdayoq Sof birodarlar (“Ixvon as-safo”) ijtimoiy tashkilotining “Musiqa haqida” risolasida deyiladi: “Bilki, har bir xalqning unga zavq va shavq, g‘am va quvonch beruvchi *o‘ziga xos* kuylari va qo‘shiqlari bor. Bunda ayniqsa, turkiylar, arab, arman, habash, fors kabi xalqlarning musiqa va qo‘shiqlari o‘ziga xosdir”.[4] Ayni paytda, an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligi masalalari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o‘rganilishi va bu ish iste’dodli yoshlarni kutib turganligini eslatib o‘tish joiz. Shunday qilib maqom lokal cholg‘u ijrochiligining shakllanishi tabiiy va ilmiy asosda kechganligi ahamiyatga ega. XIX asrga kelib Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining tarkib topishi bilan uning local ijro uslubi ham ta’sis etildi. Bunda quyidagi ichki uslublari idrok etiladi:

1) Andijon ijrochilik uslubi;
2) Farg‘ona-Namangan ijrochilik uslubi;
3) Toshkent-Turkiston ijrochilik uslubi.

Bu ijrochilik uslublari aslida yagona Farg‘ona-Toshkent maqom ijrochilik uslubiga asoslanadi, ayni paytda, cholg‘ulashtirish va maqom asarlarini o‘ziga xos

---

[1] Гафурбеков Т. Фольклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчество.-Т.,1984.
[2] Матякубов О. Фараби об основых музыки Востока.-Т.: “Фан”.1986.с.38.
[3] Nazarov A. Farobiy va ibn Sino musiqiy ritmika xususida (mumtoz iyqo’ nazariyasi).-T., 1995.
[4] Братья Чистоты, О музыке.// Музыкальная эстетика стран Востока.-М., 1967.-с.258.

nola, qochirim hamda bezaklar bilan talqin etishda xususiyatliklarga ega. Misol uchun, Andijon maqom cholg‘u ijrochiligida Uyg‘ur (Koshg‘ar) muqom ijrochilik xususiyatlari seziladi. Shu sababli G‘ulom Zafariy (1899-1938) o‘zining 1920 yili e’lon qilingan “O‘zbek musiqasi” ilmiy maqolasida Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari Bayot, Dugoh, Chorgoh, Nasrulloyi va Shahnozdan iboratligini ta’kidlab, yozadi: “Andijonda bularga Buzruk, Ushshoq va Iroqni qo‘shadilar”.[1] U holda bizning mazkur yo‘limiz ob’ekti bo‘lgan G‘anijon Toshmatov mansub Andijon maqom local cholg‘u ijrochiligida quyidagi maqom yo‘llari ommaviy bo‘lgan:

1. Bayot
2. Dugoh
3. Segoh
4. Chorgoh
5. Nasrulloyi
6. Shahnoz
7. Buzruk
8. Ushshoq
9. Iroq

Keyingi uch maqom Andijon maqom local cholg‘u ijrochiligining Farg‘ona-Toshkent maqom ijrochiligida o‘ziga xos uslubga ega ekanligini ko‘rsatadi.

**Mustahkamlash uchun savollar**

1. Maqom lokal cholg‘u ijrochiligi” qanday ma’noni anglatadi?
2. Maqom lokal cholg‘u ijrochiligi qanday asosiy xususiyatlarga ega?
3. Maqom lokal cholg‘u ijrochiligining shakllanishi qanday kechgan?

## 2.2. Maqom lokal cholg‘u ijrochiligi tadrijida g‘ijjak cholg‘usi

Maqom lokal cholg‘u ijrochiligi o‘ziga xos *tajribalarga* ega. Bunday tajribaning negizlarini quyidagilar tashkil qiladi:

1) Cholg‘ularning takomillashib borishi;
2) Cholg‘u ijrochiligida ladintonatsion, metroritmik va formaobrazlilikning rang-baranglashuvi;
3) Mahalliy ijro uslublari va ijodiy maktablarning yashovchanligi.

Mazkur tajribalarning yuzaga kelishida yuqorida ta’kidlanganidek, cholg‘u ijrochiligi ham muhim o‘rin tutgan. Shu jihatdan an’anaviy cholg‘u ijrochiligining

[1] G‘ulom Zafariy. Asarlar.-T.: “Infokapitalgrupp”. 2018. 180-bet.

shakllanishi va tajribasining yuzaga kelishida *G'ijjak* cholg'u ijrochiligi ham ahamiyatli mavqe egallagan.

Manbalarda *G'ipchak* (hozirgi G'ijjak) cholg'usi X asrda Abu Nasr Farobiy tomonidan va ba'zida esa Samarqandning So'g'didan bo'lgan Ibn Avxoz tomonidan yaratilgan, - degan ma'lumotlar mavjud.[1] Har holda G'ijjak cholg'usi va uning ijrochiligi qadim tarixga egaligi ma'lum.

Taniqli o'zbek musiqashunos olimlar I.Akbarov va Yu.Kon "al-Farobiy *rabab* cholg'u deganda O'zbekistonda g'ijjak nomi bilan mashhur bo'lgan cholg'uni nazarda tutgan bo'lishi kerak",-deydi.[2] Chunki o'zbek xalq cholg'ulari orasida g'ijjak cholg'usi va uning ijrochiligi nisbatan qadimiyroqdir. Shu sababli mumtoz manbalarda mazkur cholg'u ijrochiligiga alohida urg'u berib o'tiladi. Jumladan, XV asrning birinchi yarmida yashab o'tgan mutafakkir Mavlono Ahmadiy "Bahsi rudjnoma" (Sozlar munozarasi) asarida g'ijjak cholg'usi tilidan mazkur cholg'u ijrochiligining xususiyatlari to'g'risida deydi:

Dedi G'ijjak: "Hardaki ayyormen,
Soz ichinda rind kamondormen.

G'amzam o'qi novaki jondo'z erur,
Nolalarim barcha jigar so'z erur.

Qaydaki, men tutsam ohangi zer,
Xalqi jahondin qo'par ul dam nafir.

Jam'i bo'lur shohi pari lashkari,
Har birisi husnda oydin bari.

Shohu paridek kishilar hamdamim,
Yo'q sari jo' jumla jahondin g'amim.

---

[1] Матякубов О. Фараби об основых музыки Востока.-Т.: "Фан".1986.; Nazarov A. Farobiy va ibn Sino musiqiy ritmika xususida (mumtoz iyqo' nazariyasi).-T., 1995.

[2] I.Akbarov, Yu.Kon. O'zbek xalq cholg'u musiqasi. // O'zbek xalq musiqasi. To'plovchi va notaga oluvchi Yunus Rajabiy. Tom III.-T.: O'zdavbadiiynashr.1959. Bu faktni hassos sozanda Salohiddin Azizboev ham hisobga olgan. Qarang: Azizboev S. G'ijjak sozining moziydagi ko'rinishlari. // Xalq cholg'ulari ijrochiligining zamonaviy omillari. Maqolalar to'plami.-T. : "Musiqa".2015. 355-358-bet.

Boshdin-ayoqki bari tadbir erur
Jumla parilar manga tashir erur..."[1]

Zero, g'ijjak cholg'u ijrochiligi o'zbek lokal cholg'u ijrochiligi tajribasida o'ziga xos o'rin tutib kelmoqda. Shu ma'noda bu borada quyidagilar *yaqqol* ko'zga tashlanib turadi:

1) G'ijjak cholg'u ijrochiligining maqom ijrochiligidagi ko'rinishi;
2) G'ijjak cholg'u ijrochiligining an'anaviy mahalliy ko'rinishi;
3) G'ijjak cholg'u oilasi ijrochiligi ko'rinishlari.

Bu masala bo'lajak sozanda-mutaxassislar tomonidan idrok etilishi taqozo etiladi.

An'anaviy lokal cholg'u ijrochiligining g'ijjak cholg'u ijrochiligi yo'nalishida bir necha ijodiy maktablar mavjud. Ularning nisbatan asosiylari sifatida misol tariqasida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) Andijon ijodiy maktabi (To'xtasin Jalilov, Sobirjon Siddiqov, Mamadaziz Niyozov, G'anijon Toshmatov, Komiljon Jabborov, G'ulomjon Hojiqulov, Yunusqori Yusupov va boshq.);
2) Farg'ona-Namangan ijodiy maktabi (Uzta Ro'zimatxon Isaboyev, Mirzaqurbon Soliyev, Muxtorjon Murtazoev, Karimjon Mansurov, Rafiqjon Ahmedov, Abduhoshim Ismoilov, Qahramonjon Umarov va boshq.);
3) Toshkent ijodiy maktabi (Imomjon Ikromov, Sunnat Samadov, Ilhom To'raev, Qahramon Komilov, Ahmadjon Dadaev va boshq.) va h.k.

Ayni paytda, g'ijjak cholg'u lokal ijrochiligi umumiy an'anaviy cholg'u ijrochiligini tashkil qiladi. Shu jihatdan Nabijon Hasanov, Salohiddin To'xtasinov, Ollonazar Hasanov, O'lmas Rasulov, Salohiddin Azizboev, O'tkir Qodirov kabi mohir g'ijjakchi sozandalarning ijro uslublari musiqa san'atimizda alohida hodisa hisoblanadi.

[1] Ahmadiy. Sozlar munozarasi. // Muborak maktublar. Matnlar.- T., 1987. 254-bet. "Ohangi zer"-yuqori va baland tovush.

Lokal cholg‘u ijrochiligi va uning g‘ijjak cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishi individual ijro uslublarining yuzaga kelishi, mahalliy ijro uslublari ko‘lamining kengayishi va pirovardida an’anaviy cholg‘u ijrochiligining rang-barang uslublari asosida rivojlanib borishida muhim ahamiyatga ega.

## Mustahkamlash uchun savollar

1. An’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligi tajribasining asosiy negizlarini nimalar tashkil qiladi?
2. An’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligida g‘ijjak cholg‘u ijrochiligi qanday o‘rin tutadi?
3. G‘ijjak cholg‘u lokal ijrochiligiga qanday xususiyatlar xos?



**G‘ANIJON TOSHMATOV**

(1913-1994)

## III-BOB. MAQOM CHOLG‘U IJROCHILIGIDA G‘ANIJON TOSHMATOVNING G‘IJJAK CHOLG‘U IJROCHILIK MAHORATI

### 3.1. G‘anijon Toshmatovning hayoti va faoliyati

O‘zbek an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligi o‘ziga xos uslublar, yo‘nalishlar va ijodiy maktablariga ega. Bu omillarni o‘rganish bo‘lajak sozandalar uchun nazariy bilim asosi, mahorat manbai va kasbiy faoliyat tayanchi hisoblanadi. Shu jihatdan an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligi rivojida g‘ijjak cholg‘u ijrochiligi ham muhim o‘rin tutib kelmoqda.[1] Mazkur jarayonda ustoz sozandalar guruhiga duch kelamiz. Ulardan biri Andijon lokal cholg‘u ijrochiligining vakili, O‘zbekiston xalq artisti G‘anijon Toshmatovdir (1913-1994).[2]

Ustoz san’atkor, g‘ijjak cholg‘usi sozandasi, bastakor va jamoat arbobi Toshmatov G‘anijon aka 1913 yil 22 iyunda Andijon viloyatining Asaka tumanida tug‘ilgan. Otasi Toshmat ota Shomatov kasbi dehqon bo‘lsada, o‘z davriga xos tarzda havaskor sozanda edi.

Gap shundaki, XX asrning birinchi choragida yurtimiz hududida kuzatilganidek, Andijonda ham o‘ziga xos musiqa san’ati jarayoni kechardi. Mashhur hofiz Ashurali Hofizning (1850-1903) munosib izdoshlari Mo‘minjon Hofiz (1860-1910) va Mirzo Qosim Hofizning (1850-1917) san’ati bu davrda el-yurtni sehrlagan edi. Shuningdek, bu muhitga  Namangandan Jalolxon Hofiz (1850-1916) va Isfaradan Madumar Hofiz (1884-1916) tashrif qilib turardi.

Bularning barchasi 1910-1920 yillar oralig‘ida  Andijonda o‘ziga xos musiqiy muhit va madaniyatni yuzaga keltirgandi. Bundan tashqari, mazkur muhitda qadimiy san’atga ega bo‘lgan. Turkiy xalqlardan Sharqiy Turkistonning Uyg‘ur san’atkorlar hamkorligi bor edi. Ustoz G‘anijon Toshmatov mana shunday muhitda dunyoga keldi va uning qulog‘iga go‘dakligidayoq musiqa san’ati ohanglari singdi.

---

[1] Петросянц А.Школа игре гиджака.-Т., 1960. Felitsiant R, Aliev S. G‘ijjak darsligi.-T., 1961. Toshmuhammedov M. G‘ijjak darsligi.-T., 1995. Azizboev S. An’anaviy g‘ijjak ijrochiligi.-T., 2005. Nazirov Q. G‘ijjakda o‘zbek milliy kuylarini o‘zlashtirish.-T., 2011, Shu muallif. G‘ijjak sinfi darsligi.-T., 2013. Qodirov N. G‘ijjak ijrochiligida mahalliy uslublar.-T., 2016. Va h.k. G‘ijjak cholg‘u ijrochiligi mahorati to‘g‘risida yana qarang: Петросянц А. Инструментоведение.-Т., 1990. Qosimov R. An’anaviy ijrochilik.-T., 2007 va h.k.

[2] Suyunova Z. G‘anijon Toshmatov.-T., 2009. Qodirov N. G‘ijjak ijrochiligida mahalliy uslublar.-T., 2016.  86-87-bet.

G‘anijon Toshmatovning bolaligidan musiqa san’atiga qiziqishiga ikki omil sabab bo‘lgan:

1) O‘sha vaqtdagi Andijon musiqa san’ati muhiti;
2) Otasi va akasining ijobiy ta’siri (oila muhiti).

Ustoz G‘anijon Toshmatov g‘ijjak cholg‘usini chalishni otasi va akasidan o‘rgangan. Keyinchalik 17-19 yoshlarida, ya’ni 1930-1932 yillarda g‘ijjak cholg‘u ijrochilik asoslarini mashhur san’atkor Sobirjon Siddiqovdan ( 1900-1961) oldi.

Mashhur sozanda Sobirjon Siddiqov O‘zbekiston xalq artisti, XX asr o‘zbek san’atining mohir fidoiysi To‘xtasin Jalilovning (1896-1966) munosib shogirdi va hamkori edi. Uning g‘ijjak cholg‘u ijrochilik san’atida an’anaviy, maqom va xalq cholg‘u ijrochiligi muhim o‘rin tutardi. Ustoz G‘anijon Toshmatov an’anaviy va maqom cholg‘u ijrochilik uslublarini Sobirjon Siddiqovdan o‘zlashtirgan.

G‘anijon Toshmatov 19 yoshida 1932 yili Andijon viloyat musiqali drama teatriga g‘ijjakchi sozanda sifatida ishga qabul qilindi. Mana shu davrdan boshlab uning mustaqil ijodi boshlandi va u 1994 yilga qadar 62 yil davom etdi.

Ustoz 1939 yildan poytaxt Toshkent shahrida yashab ijod qildi. 1979 yili o‘zbek musiqa san’ati rivojida muhim hodisa bo‘lgan O‘zteleradio qo‘mitasi qoshida “Dutorchi qizlar” ansamblini tuzib, unga rahbarlik qildi. Mazkur ansambl el hurmatiga sazovor bo‘ldi va yuzlab mohir san’atkorlarni voyaga etkazdi. El orasida “dutorchi qiz” bo‘lish orzusi va odati yuzaga keldi. Bularning barchasi G‘anijon Toshmatov ijodiy mehnatining samarasidir.

G‘anijon Toshmatov 1972 yili O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti unvoniga sazovor bo‘ldi. Bu voqealarni el-yurt zavq bilan kutib olgan.

1994 yil ustoz G‘anijon Toshmatov vafot etdi, butun el motam tutdi. Ustoz Toshkent shahridagi Chig‘atoy qabristonida dafn etilgan va uning ehtirom bilan ziyorat qilinuvchi ravzalaridan biridir.

O‘zbekiston xalq artisti G‘anijon Toshmatov hayoti va faoliyatining *muhim sanalari*:

- 1930-1932 yillar: mohir sozanda Sobirjon Siddiqovdan ta’lim olish, G‘ijjak cholg‘u ijrochiligi asoslari o‘zlashtirish;

- 1932-1934 yillar: Andijon davlat musiqali drama teatri sozandalar ansamblida g‘ijjak cholg‘u sozandasi;
- 1934-1939 yillar: Farg‘ona viloyat davlat musiqali drama teatrida sozanda, gastrollar ishtirokchisi, Katta Farg‘ona kanali qurilishi mehnatkashlari huzuridagi kontsertlar ishtirokchisi, el nazariga tushish;
- 1939-1946 yillar: Toshkent shahrida, Muqimiy nomidagi o‘zbek musiqali drama va komediya teatrida sozanda;
- 1946-1953 yillar: O‘zbek davlat filarmoniyasi xalq cholg‘ulari ansamblida sozanda;
- 1953-1957 yillar: O‘zbekiston radioqo‘mitasi qoshidagi o‘zbek xalq cholg‘ular orkestrida sozanda, bastakorlik faoliyatining boshlanishi;
- 1957-1967 yillar Radioqo‘mita qoshidagi badiiy jamoalar (xalq ansambllari) rahbari, sozanda, 1959 yildan Yunus Rajabiy tuzgan maqomchilar ansambli a’zosi;
- 1967-1978 yillar: O‘zbekiston uyg‘ur xalq ansambli rahbari;
- 1979-1994 yillar: “Dutorchi qizlar” ansambli rahbari, 1987-1988 yillar ayni vaqtda YUnus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli rahbari.

**Mustahkamlash uchun savollar**

1. G‘anijon Toshmatov tug‘ilgan Andijon qanday ijodiy muhitga ega edi?
2. G‘anijon Toshmatovning ustozi kim?
3. G‘anijon Toshmatov faoliyatining muhim sanalari qaysi yillardan iborat?

## 3.2. G‘anijon Toshmatovning ijodiy merosi

O‘zbekiston xalq artisti, hassos san’atkor G‘anijon Toshmatov musiqa san’atimizda o‘ziga xos *ijodiy meros* qoldirdi. Uning sozanda, xalq kuylarining chuqur bilimdoni va ajoyib bastakor ekanligi mutaxassislar tomonidan bir ovozdan e’tirof

etiladi.[1] Ustoz san'atkor ustozi va hamkasbi To'xtasin Jalilovdan (1896-1966) jo'shqin ijod qilish va keng ko'lamliijod namunalarini yaratish mahoratini o'zlashtirgan.

G'anijon Toshmatovda keng ijodiy ko'lam namunalarini yaratish fikri va ishtiyoqi 1934-1939 yillar davomida Farg'ona viloyati davlat musiqali drama teatri sozandasi sifatida Katta Farg'ona kanali qurilishi, Kosonsoy (Namangan) va Kattaqo'rg'on (Samarqand) suv omborlari qurilishi mehnatkashlari huzuriga uyushtirilgan gastrol-kontsertlardagi ishtiroki vaqtida paydo bo'lgan. Chunki bu davrda el-yurt ishtiyoq va ko'tarinki ruh bilan asr qurilishini amalga oshirishga kirishgan edi. Bundan tashqari, o'sha davrda xalq orasida xalq musiqa ijodi juda yuqori edi va G'anijon Toshmatov kabi zukko san'atkorlarda bu noyob merosni saqlab qolish fikri paydo bo'ladi. Chunki 1930-1940 yillar oralig'ida Evropacha andozadagi musiqa san'ati kirib kela boshlaganligi ma'lum.

Kezi kelganda ta'kidlash joizki, 1930 yillarda o'zbek sozandalari, xonandalari va bastakorlarini jo'shqin ijodga yuz burishida o'zbek milliy musiqashunosligi ham sabab bo'lgandi. Misol uchun, nekbin olim Viktor Belyaevning "O'zbekiston musiqa cholg'ulari" tadqiqotida o'zbek xalq cholg'ularining ko'p turliligi, tovush ko'lamining o'ziga xosligi va bu jahon xalqlari musiqa madaniyatida noyob hodisa ekanligi asoslab berilgan.[2] Bu kabi olimlar XX asrning 30-40 yillarida o'zbek musiqa san'ati namoyandalarini qizg'in ijodiy faoliyatga yo'naltirdi. Ustoz san'atkor G'anijon Toshmatovning ijodiy merosini *uch yirik* guruhga bo'lish mumkin.

1) Sozandalik;
2) Bastakorlik;
3) Xonandalik.

G'anijon Toshmatov G'ijjak cholg'u *sozandasi* sifatida o'zbek an'anaviy cholg'u ijrochiligi va lokal cholg'u ijrochiligida mohir san'atkor edi. Uning buboradagi faoliyati ikki yo'nalishdan iborat: 1) maqom yo'llariga mansub asarlari ijrochiligi; 2) xalq kuylari va kompozitorlarning asarlari ijrochiligi. Misol uchun, O'zbekiston teleradiosi Oltin fondida ustoz san'atkor G'ijjak cholg'usida ijro etgan

---

[1] Qarang: Suyunova Z. G'anijon Toshmatov.-T.: O'zDK.2009. Alimbekov K., Ahmedov M. O'zbekiston xalq sozandalari.-T. : O'zdavbadiiynashr.1959. Jabborov A. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari.-T. : "Yangi asr avlodi". 2004. va h.k.

[2] Беляев В. Музыкальные инструменты Узбекистана.-М. : Музгиз. 1933.

Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga mos ravishda yaratilgan “Iroq”, “Segoh”, “Nasri Segoh”, “Dugoh”, “Chapandozi Bayot”, “Buzruk”, “Navro‘zi Ajam”, “Andijon surnay navosi”, “O‘yin munojoti” kabi turkum kuylar saqlanmoqda.

1-misol:

# SEGOH

G‘.Toshmatov ijrosidan
N.Qodirov notaga olgan




71
A TEMPO
P
79
Mf
90
99
105

# O'YIN MUNOJOT

G'.Toshmatov ijrosidan
N.Qodirov notaga olgan




tr
3
tr
tr
tr
tr
rit.

G‘anijon Toshmatovning musiqa ijrosi o‘ziga xos jarangdorligi, ohangdorligi va musiqiy bo‘yoqlarga boyligi bilan ajralib turadi. Ustoz san’atkor ayniqsa, surnay ijrochilik yo‘liga xos nolishlar va tebranishlarni g‘oyatda o‘rinli va me’yorli beradi. Uning ijrosi ilk nuqtadan boshlanib dinamik rivojlanib boradi va asar so‘nggida yana dastlabki nuqtaga mayin va silliq tarzda qaytadi. Ustozning ijrosida tovushlarning o‘rinsiz “o‘tlashi” kuzatilmaydi.

Mohir san’atkorning ijodi merosida *bastakorlik* asarlari muhim o‘rin tutadi. Mutaxassislar va shogirdlari tomonidan G‘anijon Toshmatov “xalq kuylarining bilimdoni” sifatida e’tirof etiladi hamda uning 200dan 400tagacha kuy va qo‘shiqlar yaratganligini ta’kidlashadi.[1] Bu o‘rinda ustoz san’atkor bastalagan va O‘zbekiston teleradiosining Oltin fondida saqlanayotgan asarlardan namunaga e’tiboringizni tortamiz.

2-misol*:*

## GULJAMOL

Bobur g'azali
G'.Toshmatov musiqasi
Y.Yusupov ijrosidan N.Qodirov notaga olgan




[1] Suyunova Z. G‘anijon Toshmatov.-T.: O‘zDK.2009. 9-bet.


ray ho - ni - dur, G'un-cha sir - rin och - qon
ul ik-ki la bi xan-do ni - lur
Ul ma sal sal ik - ki zul - fi
gul yu zi ning dav-ri - da Gul u-za
og' nar ma - gar ul ik-ki -
ning dav-ro ni dur Sel e mas dur
yer yo - zin tut- qon ko' - zim -
ning yo - shi - dur Ra'd e mas dur ko'k - ka
chir - - mash-qon ko'n - gul af - g'o ni dur


Lo - ja - ram
bo‘l-g‘ay pa ri cho-nu ha vo yi men ki bi
f
Zar-ra yang - - - lig‘ kim - ni bir
f
Xur shed sar - - gar - do - ni dur Ul pa ri
mf
ish qi - da Bo-bur ko‘ng lim an -
doq tel - ba - dur Kim, so chi
p
zan ji - ri - dur cho - hi zi - han
f
zin do - ni dur Kim, so chi zan ji - ri-
dur cho hi zi- han zin do - ni-dur
f

Gul jamolin yopqon ul gulning iki rayhonidur,
G‘uncha sirrin ochqon ul ikki labi xandonidur.

Ul musalsal ikki zulfi gul yuzining davrida
Gul uza og‘nar, magar ul ikkining davronidur.

Sel emasdur Yer yuzin tutqon-ko‘zimning yoshidur,
Ra`d emasdur ko‘kka chirmashqon- ko‘ngul afg‘onidur!

Lojaram,bo‘lg‘ay parishonu havoyi men kibi-
Zarra yanglig‘ kimki bir xurshed sargardonidur.

Ul pari ishqida, Bobur, ko‘nglum andoq telbadur
Kim, sochi- zanjiridur, choxi zaqan- zindonidur.

***

**G‘anijon Toshmatovning O‘zbekiston teleradiosining Oltin fondida saqlanayotgan asarlari ro‘yxati**

<table>
<tr><th>t/r</th><th>Asar nomi</th><th colspan="2">Oltin fondda saqlanayotgan raqami</th><th>Ijrochilar</th></tr>
<tr><td colspan="5">1.Kuylar</td></tr>
<tr><td>1</td><td>“Istadim”</td><td colspan="2">RDKS-37949≈3.53</td><td>G‘ijjakda Sharif Bobojonov</td></tr>
<tr><td>2</td><td>“O‘rgilay”</td><td colspan="2">RDKS-19789≈2.50</td><td>Rubobda Tohir Rajabiy</td></tr>
<tr><td>3</td><td>“Alla”</td><td colspan="2">RDKS-34984≈5.50</td><td>Rubobda Zamira Rahmatullaeva</td></tr>
<tr><th>t/r</th><th>Asar nomi</th><th>Qo‘shiq matni muallifi</th><th>Oltin fondda saqlanayotgan raqami</th><th>Ijrochilar</th></tr>
<tr><td>1</td><td>“Sho‘x qizlar”</td><td>Oxunjon Hakimov</td><td>RDKS-36647≈1.55</td><td>Dutorchi qizlar ansambli</td></tr>
<tr><td>2</td><td>“Shod etib”</td><td>Haydar YAhyoev</td><td>RDKS-18456≈3.10</td><td>Rahima Yo‘ldosheva</td></tr>
<tr><td>3</td><td>“Yurtim mehri”</td><td>Vosit Sa’dulla</td><td>RDKS-22196≈3.20</td><td>Ochilxon Otaxonov</td></tr>
<tr><td>4</td><td>“Guljamol”</td><td>Z.M.Bobur</td><td>RDKS-51100≈4.35</td><td>Yunusqori Yusupov</td></tr>
<tr><td>5</td><td>“Istar”</td><td>Sobir Abdulla</td><td>RDKS-25873≈3.10</td><td>Zamira Suyunova</td></tr>
<tr><td>6</td><td>“Karvon keldi”</td><td>Chustiy</td><td>RDKS-28473≈4.05</td><td>Berta Davidova</td></tr>
<tr><td>7</td><td>“Olmaydi xabar”</td><td>Xalq so‘zi</td><td>RDKS-19349≈2.45</td><td>Ochilxon Otaxonov</td></tr>
</table>

Zero, G‘anijon Toshmatov yaratgan kuy va qo‘shiqlar badiiy jihatdan mukammalligi, obrazlarga boyligi va chuqur mazmunga egaligi bilan ajralib turadi.

Shu sababli ular o‘z davrining mashhur sozandalari va hofizlar tomonidan yuksak saviyada ijro etilgan. Bu merosni chuqur o‘zlashtirish bugungi kunda zaruriyat hisoblanadi. Shu jihatdan ustoz san’atkorning G‘ijjak cholg‘usida ijro etiladigan quyidagi original asariga diqqat qiling:

*3-misol:*

# KEZARMAN

G'.Toshmatov musiqasi








Ustoz G‘anijon Toshmatov ijodiy merosining navbatdagi qismini *xonandalik* faoliyati tashkil qiladi. San’atkorning ardoqli shogirdlaridan biri O‘zbekiston xalq artisti Zamira Suyunova yozadi: “Ustozning ijrosida 10dan ortiq ashulalar radio fondiga yozilgan”.[1]

Zero, ustoz san’atkor G‘anijon Toshmatovning ijodiy merosi keng ko‘lamligi, boyligi va badiiy yuksakligi bilan diqqatni tortadi. Bu meros bo‘lajak sozanda, xonanda va bastakorlar tomonidan chuqur o‘zlashtirilishi kerak. Chunki bu meros musiqa san’atining asosiy yo‘nalishlarida yaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

**Mustahkamlash uchun savollar**

1. G‘anijon Toshmatovning keng ko‘lamli ijod namunalarini yaratishga qanday omillar sabab bo‘lgan?
2. Ustoz san’atkorning ijodiy merosi necha guruhga bo‘linadi?

### 3.3. G‘anijon Toshmatovning cholg‘u ijrochilik san’ati

Ustoz G‘anijon Toshmatovning cholg‘u ijrochilik san’ati o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar negizini bir necha omillar tashkil qiladiki, ularni tizimli idrok etish taqozo etiladi.

---

[1] Suyunova Z. G‘anijon Toshmatov.-T.: O‘zDK.2009. 8-bet.

G‘anijon Toshmatov avvalo G‘ijjak cholg‘usining *imkoniyatlarini* teran idrok etgan. Uning Dutor, Rubob kabi sozlarni yaxshi ijro qilgani ma’lum va bastakor sifatida xalq cholg‘ulari xususiyatlaridan yaxshi xabardor bo‘lgan. Lekin Ustoz g‘ijjak sozi ijrosini tanlagan. Chunki G‘ijjak cholg‘usini o‘zlashtirish ancha murakkabligi, ijro etish imkoniyatlari va tovush ko‘lamining kengligi, yuqoriligi, o‘ziga xos jarangdorligi va ohangdorligi shuningdek tovushi inson ovoziga yaqin turishi bilan ajralib turadi.

Ustoz san’atkor ijrosiga shtrixlarni me’yorli berish, asar mazmunini chuqur ifodalash va tovushlarning “qochishiga” yo‘l qo‘ymaslik xususiyatlari xosdir. SHuningdek, san’tkor takomillashtirilgan (rekonstruktsiya qilingan) G‘ijjak sozi oilasiga ham ijobiy munosabatda bo‘lgan va yangi turdagi G‘ijjak cholg‘usi ijrochiligini rivojlantirish yo‘lida shogirdlariga tavsiyalar berganligi ahamiyatga egadir.

XX asr o‘zbek G‘ijjak cholg‘u ijrochiligi musiqa san’atimizda alohida bosqich hisoblanadi. Bu davrda To‘xtasin Jalilov (1896-1966), Mamadaziz Niyozov (1907-1970), Muxtorjon Murtazoev (1909-1994), Imomjon Ikromov (1891-1980), Nabijon Hasanov (1913-1972), Komiljon Jabborov (1914-1975), Doni Zokirov (1914-1985), Ollonazar Hasanov (1924-1997), G‘ulomjon Hojiqulov (1928-2014), Sayfi Jalil (1932-2003), Yunusqori Yusupov (1934-1987) kabi mohir va zabardast G‘ijjak sozi ijrochilari faoliyatda bo‘ldi. Ayni paytda ular bastakor ham edilar. Mana shunday yuksak ijodiy jarayonda G‘anijon Toshmatovcholg‘u ijrochilik san’atida *o‘z o‘rniga* ega bo‘ldi. San’atkor o‘zining ijrochilik mahorati bilan salaflaridan farqlanib turadi. Chunki u xalq musiqa merosi va ilmiy musiqashunoslik asoslarini uyg‘un va chuqur bilar edi. Skripka cholg‘usining imkoniyatlarini yuqori baholagan holda, milliy G‘ijjak cholg‘u ijrochiligini zamon talablari asosida rivojlantirish yo‘lida xizmat qildi.

G‘anijon Toshmatovning G‘ijjak ijrochilik san’atida *maqom yo‘llaridagi ijrochiligi* alohida o‘rin tutadi. U asosan maqomot san’atining Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarida “mahalliy xalq cholg‘u ijrochiligining xususiyatlari o‘z aksini topgan”.[1] Shu jihatdan G‘anijon Toshmatovning maqom cholg‘u ijrochiligida mazkur

---

[1] Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir.-T.: O‘zdavbadiiynashr.1963. 253-bet. Yana qarang: Matyakubov O. Maqomot.-T, 204. Ибрагимов О. Фергана-Ташкентские макомы.-T., 2006 va h.k.

maqom yo‘llariga xos xususiyatlar bo‘rtib turadi. Bu xususiyatlar negizini xalq kuylariga xos bo‘lgan qochirimlar, bezaklar va o‘ynoqi ruh tashkil qiladi.

Bu o‘rinda ustoz san’atkor ijro etgan “Chapandozi Bayot” cholg‘u yo‘liga e’tibor bering:

1-misol:

## CHAPANDOZI BAYOT

G‘.Toshmatov ijrosidan
N.Qodirov notaga olgan




39
46
53
60
68
76
84
92
99


107
114
122
131
139
147
154
162
170




San'atkorning zamondoshlari uning mazkur “Chapandozi Bayot”ni o‘ziga xos mahorat bilan ijro etganligini e’tirof etishgan.[1] “Chapandozi Bayot”ning usuli teskari zarb bilan ijro etilishi ma’lum va bunda ustoz san’atkor g‘oyat mahorat ko‘rsata olgan.

G‘anijon Toshmatovning cholg‘u ijrochilik san’atidagi yana bir muhim masala uning *xalq kuylarini* yuksak darajada ijro etishidir. Bunda u xalq kuylaridagi obrazlilikni, milliy koloritni va ohangdorlikni me’yorli darajada ifodalashga harakat qiladi. Uning ijrosini tinglaganingizda milliylik va xalq ruhini chinakam ma’noda his qilasiz. Shu jihatdan uning o‘zi xalqdan olib ijro etgan “Tong otguncha” kuyiga e’tibor bering:

2-misol:

## TONG OTGUNCHA

G'.Toshmatov ijrosidan
N.Qodirov notaga olgan




[1] Jabborov A. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari.-T., 2004.




Ushbu asar avvallari Farg‘ona vodiysining zabardast hofizlari tomonidan Xaziniy g‘azali bilan ijro etib kelingan. Keyinchalik mashhur hofiz Ma’murjon Uzoqov shoir Miskinning “Ey dilbari jononim” deb nomlangan g‘azali bilan yuksak darajada ijro etib mazkur asarni yanada ommalashishiga hissa qo‘shgan.

Zero, G‘anijon Toshmatovning cholg‘u ijrochilik san’ati XX asr o‘zbek an’anaviy cholg‘u ijrochiligida o‘ziga xos fonomenlardan biri hisoblanadi. Bu boradagi san’atkorning ijro uslubi va mahorati individual xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

## Mustahkamlash uchun savollar

1. G‘anijon Toshmatov g‘ijjak cholg‘u ijrochiligining imkoniyatlarini qanday idrok etgan?
2. Ustoz san’atkorning cholg‘u ijrochilik san’atida qanday xususiyatlari bo‘rtib turadi?
3. San’atkor an’anaviy cholg‘u ijrochiligining qaysi yo‘nalishlarida ko‘proq ijod qilgan?

## 3.4. G‘anijon Toshmatov ijrochilik mahoratining maqom cholg‘u ijrochiligi rivojida tutgan o‘rni

O‘zbek musiqa san’atining Farg‘ona-Toshkent lokal cholg‘u ijrochiligi XX asrda o‘ziga xos jarayonda bo‘ldi. Bu yo‘nalish cholg‘u ijrochiligining an’anaviy uslublarini saqlab qolish va uni zamonaviy ijro usullari bilan boyitib borish omiliga tayanadi. Aynan mana shu masalaga diqqat qilish kerak bo‘ladi. SHu jihatdan ustoz san’atkor G‘anijon Toshmatovning an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligida tutgan o‘rni masalasini idrok qilish mumkin.

G‘anijon Toshmatov o‘zbek an’anaviy cholg‘u ijrochiligining Farg‘ona-Toshkent *lokal yo‘nalishi* vakili. Ushbu yo‘nalishga xos ijro uslublari uning ijrochilik mahoratida o‘z aksini topgan. San’atkor ijro mahoratida shu jihatdan quyidagilar bo‘rtib turadi.

- mahalliy xalq ijro kuylari va ijro uslublarini saqlash, ijro etish hamda ularni avlodlarga uzatish;
- an’anaviy lokal cholg‘u ijrochilik uslublarini optimallashtirish va ularni umummilliy cholg‘u ijrochiligi an’analariga uyg‘unlashtirish;
- Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari vokal musiqasi ijrochiligini ommaviylashtirish;
- vohaga xos lokal ijrochilik uslublarini va shakllarini targ‘ibot qilish maqsadida yangi cholg‘u va vokal kuylarini yaratish;
- munosib iste’dodli xonanda va sozandalarni tarbiyalab voyaga etkazish.

Bu masalalar bo‘lajak sozandalar tomonidan teran idrok etilishi kerakki, ular ustoz san’atkorning an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligi rivojiga qo‘shgan hissasini belgilaydi.

Mashhur hofiz va bastakor Fattohxon Mamadaliev (1923-1999) “Milliy musiqa ijrochiligi masalalari” risolasida yozgandi: “Farg‘ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Xorazm va Surxondaryo-Qashqadaryo vohalarining musiqiy udum-an’analari o‘rtasida chuqur milliy *mushtaraklik* mavjud. Shunday bo‘lsa-da, mahalliy-erli *o‘zgacha ijodiy ko‘rinishlar* sezilarli darajada saqlangan”.[1] Shu jihatdan G‘anijon Toshmatov Farg‘ona-Toshkent an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligi Andijon yo‘nalishi vakili sifatida mazkur hudud musiqa ijrochiligi *xususiyatlarini* ijro mahoratida mujassam etgan san’atkordir. Unga ko‘ra, an’anaviy cholg‘u ijrochiligi, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari lokal cholg‘u ijrochiligi va xalq cholg‘u ijrochiligi *uslublari* san’atkor mahoratida namoyon bo‘lgan. Shu sababli G‘anijon Toshmatovni xalq g‘ijjakchi sozanda sifatida e’tirof etadi.

Professor O.Ibrohimov deydi: “Farg‘ona-Toshkent maqomlarida (cholg‘u yo‘llarida-N.Q) ko‘p hollarda sozanda tomonidan ijro uslublarini yangilash, lad-intonatsiyani ko‘tarish va mavjud ijro variantlarini sezilarli o‘zgartirish kuzatiladi”[2] Aynan mana shu xususiyatlar G‘anijon Toshmatovning ham G‘ijjak cholg‘u ijrochilik mahoratida ham mavjud. Lekin, uning ijro uslubidagi yangilik va o‘zgartirishlari kuyning mazmuni va qonuniyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Aksincha, kuyning mazmundorligi ortadi va tinglovchiga etkazish imkoniyatlari kengayadi.

Ustoz san’atkor G‘anijon Toshmatovning G‘ijjak cholg‘u ijrochiligi tahlili shuni ko‘rsatadiki, u cholg‘uni quyidagi besh ko‘rinishda sozlagan:

**1-ko‘rinish:**

1-tor: sol kichik oktava;

2-tor: re birinchi oktava;

3-tor: lya birinchi oktava;

4-tor: mi ikkinchi oktava;

**2-ko‘rinish:**

1-tor: lya kichik oktava;

2-tor: re birinchi oktava;

3-tor: sol birinchi oktava;

4-tor: do ikkinchi oktava;

---

[1] Mamadaliev F. Intizoring eslagil...-T., 2014. 10-bet.

[2] Ибрагимов О. Фергана-Ташкентские макомы.-Т., 2006. 97-bet.

**3-ko‘rinish:**

1-tor: sol kichik oktava;

2-tor: re birinchi oktava;

3-tor: sol birinchi oktava;

4-tor: do ikkinchi oktava;

**4-ko‘rinish:** ***(Bayot sozi-g‘ijjakda)***

1-tor: fa kichik oktava;

2-tor: re birinchi oktava;

3-tor: lya birinchi oktava;

4-tor: mi ikkinchi oktava;

**5-ko‘rinish:** ***(Bayot sozi-skripkada)***

1-tor: fa kichik oktava;

2-tor: re birinchi oktava;

3-tor: sol birinchi oktava;

4-tor: do ikkinchi oktava;

Demak, san’atkor qadimiy an’anaviy cholg‘u ijrochiligi sozlanishiga amal qilgan. Bu XX asr I-choragi uchun muhim hodisa edi, chunki bu davrda an’anaviy va Evropa cholg‘u ijrochilik uslublari “bahsi” kechayotgandi. G‘anijon Toshmatovning bu borada an’anaviy va zamonaviy ijro uslublarining har ikkisi ham o‘ziga xos,-degan yondoshuvda bo‘lganligini ta’kidlab o‘tish joiz.

G‘anijon Toshmatov ijrochilik mahoratining an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligida yana bir o‘rni *xalq cholg‘ulari ijrochiligini* rivojlantirishga qo‘shgan hissasi bilan belgilanadi. Bunda san’atkorning G‘ijjak, Dutor, Rubob, Doira, Chang kabi xalq cholg‘ulari ijrochiligiga ayricha ahamiyat berganligi ko‘rinadi. San’atkor bu borada ikki yo‘nalishda faoliyat olib borgan:

1) “Dutorchi qizlar” ansambli ijrochilik faoliyatida;
2) Xalq cholg‘ulari uchun musiqiy asarlar yaratish.

Buning natijasida xalq cholg‘ulari ijrochiligi ko‘lami kengaydi, mohir sozandalar yetishib chiqdi va an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligi ilmiy asoslarga ko‘ra rivojlanib bordi. Bularning negizida G‘anijon Toshmatovning cholg‘u ijrochilik mahorati o‘z ifodasini topganligini sezish qiyin emas. San’atkor mehnati va faoliyatini ana shunday mezonlar asosida olib borganligi maqsadga muvofiqdir.

Ustoz san’atkor G‘anijon Toshmatov mansub Farg‘ona-Toshkent lokal cholg‘u ijrochiligi *milliy kuylar* ijrochiligiga alohida e’tibor berganligi to‘g‘risida ilk musiqashunoslardan biri, jadid ma’rifatparvari G‘ulom Zafariy (1899-1938) maxsus diqqatni tortgan edi.[1] Uning fikricha, Farg‘ona-Toshkent hududi sozandalari ijro etadigan kuylar “sof o‘zbekchadir”. Sof o‘zbekchaligini belgilovchi xususiyat shuki, “o‘z ruhimiz va udumlarimiz jo bo‘lgan”.

G‘ulom Zafariy Koshg‘ar, Farg‘ona, Sirdaryo va Toshkent hududlarida quyidagi “kuylar (maqom yo‘llari-N.Q.) mashhur”ligini alohida ta’kidlaydi. 1) Dugoh, 2) Segoh.

Shunday qilib ustoz san’atkor G‘anijon Toshmatov an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligimizda muhim o‘rin tutadi. Buni anglash va bilish bo‘lajak sozandalar uchun mahorat maktabi hisoblanadi.

**Mustahkamlash uchun savollar**

1. Ustoz san’atkor G‘anijon Toshmatov qaysi an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishiga mansub?
2. San’atkor ijrochilik mahoratining o‘zbek an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligida tutgan o‘rni nimalar bilan belgilanadi?
3. G‘anijon Toshmatovning ijrochilik mahoratini o‘rganish sozandalar uchun qanday ahamiyatga ega?

[1] G‘ulom Zafariy. Asarlar.-T.: “Info kapital grup” 2018. 164-183-betlar.

# IV-BOB. OLIY MUSIQA TA’LIMI TIZIMIDA MAQOM LOKAL CHOLG‘U IJROCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

## 4.1 Oliy musiqa ta’limi tizimida maqom local cholg‘u ijrochiligini o‘rganish metodikasi

O‘zbekistonning hozirgi musiqa ta’limi tizimi o‘ziga xos xususiyatga ega. Bu milliy tizim jahon ta’lim standartlariga mos bo‘lib, ko‘pgina xorijiy davlatlarning musiqa ta’limi tizimidan *uzviylik va uzluksizlik* printsiplariga asoslanishi bilan ustuvorlikka ega. Bundan tashqari, mazkur tizim dunyoviy va demokratik xarakterda bo‘lib, unda kasbni tanlash va ta’lim olish ixtiyoriydir. SHunisi ahamiyatliki, O‘zbekiston aholisining 62 foizini 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil qilgani holda, ushbu yoshlarning deyarli teng yarmi musiqa san’atini tanlamoqda. Bu muhim ijtimoiy va madaniy hodisadir.

Uzviylik va uzluksizlik printsipiga asoslangan Respublika musiqa ta’lim tizimi quyidagilardan iborat:

- O‘rta umumiy ma’lumot beruvchi (bolalar musiqa va san’at maktablari);
- O‘rta maxsus ma’lumot beruvchi (san’at va madaniyat kollejlari hamda ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseylari);
- Oliy ma’lumot beruvchi (O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti hamda davlat pedagogika institutlari).

Bu noyob tizim bo‘lib, u shaxsning erkin bilim olish va kasb-hunar egallash huquqini ro‘yobga chiqarmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 avgustdagi “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga binoan konservatoriya musiqa ta’limida “tayanch o‘quv yurti” sifatida belgilangan. Shu jihatdan O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Respublika musiqa ta’limi tizimini ilmiy-nazariy va metodologik manbalar bilan ta’minlovchi bazadir.

Hozirgi kunda musiqa ta’limi tizimi yagonalashtirilgan va tabaqalashtirilgan o‘quv dasturlari asosida musiqa san’atining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha ta’limni amalga oshirmoqda. Bu yo‘nalishlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- Kompozitorlik san’ati
- San’atshunoslik: musiqashunoslik
- Dirijyorlik: xor dirijyorligi
- Dirijyorlik: opera simfoniya dirijyorligi
- Vokal san’ati: akademik xonandalik
- Vokal san’ati: an’anaviy xonandalik
- Vokal san’ati: estrada xonandaligi
- Vokal san’ati: xor xonandaligi
- Cholg‘u ijrochiligi: fortepiano (organ)
- Cholg‘u ijrochiligi: torli cholg‘ular
- Cholg‘u ijrochiligi: yog‘och-damli cholg‘ular
- Cholg‘u ijrochiligi: mis-damli va zarbli cholg‘ular
- Cholg‘u ijrochiligi: mizrobli xalq cholg‘ulari
- Cholg‘u ijrochiligi: kamonli o‘zbek xalq cholg‘ulari
- Cholg‘u ijrochiligi: damli va urma xalq cholg‘ulari
- Cholg‘u ijrochiligi: an’anaviy cholg‘ular
- Cholg‘u ijrochiligi: estrada cholg‘ulari
- Texnogen san’ati: musiqiy ovoz rejissyorligi
- Kasbiy ta’lim: vokal san’ati va cholg‘u ijrochiligi

Ta’lim zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarga asosan yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, tizimda noyob Ustoz-shogird an’anasi tarkib topgan.

Musiqa ta’lim tizimida o‘ziga xos *an’anaviy cholg‘u ijrochiligi* yo‘nalishi ham mavjud bo‘lib, unda 50 ga yaqin an’anaviy va xalq cholg‘ulari bo‘yicha saboq berilmoqda. Bu jarayonda nazariy va amaliy bilim berish, cholg‘u ijrochilik ko‘nikmasi va malakasini shakllantirish ustuvor hisoblanadi. Shu jihatdan bugungi kunda mazkur tizimda an’anaviy *lokal* cholg‘u ijrochiligini ham chuqur o‘rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Hozirgi zamon an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligimiz, jumladan, g‘ijjak lokal cholg‘u ijrochiligi shartli ravishda quyidagi hududlarga bo‘linadi:

- Farg‘ona – Toshkent;

- Buxoro – Samarqand;
- Xorazm;
- Surxondaryo – Qashqadaryo.[1]

Mazkur hududlarda an'anaviy cholg'u ijrochiligining *lokal xususiyati* ladintonatsion, metroritmik va obrazshakllarning o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Shu sababli musiqa ta'limi tizimida an'anaviy lokal cholg'u ijrochiligini o'rganish uchun aniq va maqbul *metodikaga* asoslanish taqozo etiladi.

"Metod" yunoncha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi ta'lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o'zlashtirish, o'rgatish, o'rganish hamda bilish uchun xizmat qiladigan yo'riqlar va usullar majmuidir.[2] Shu ma'noda musiqa ta'limi tizimida an'anaviy lokal cholg'u ijrochiligini o'rganish uchun quyidagi *metodikaga* asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

A) *Mashg'ulotlar shakli*

- mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida;
- maxsus kurs tashkil qilish (masalan, "O'zbek an'anaviy lokal cholg'u ijrochiligi" maxsus kursi)
- to'garakni yo'lga qo'yish.

B) *Bilim berish asosi*

- nazariy va amaliy;
- ijro ko'nikmasini shakllantirish.

V) *Nazariy mashg'ulot*

- an'anaviy lokal cholg'u ijrochiligi asoslarini tushuntirish;
- hududlar kesimida an'anaviy lokal cholg'u ijrochiligining farqli va mushtarak tomonlarini o'rgatish;
- an'anaviy lokal cholg'u ijrochiligida cholg'ulashtirish masalasini o'rganish;
- an'anaviy cholg'u ijrochiligi asarlarini o'zlashtirish.

G) *Amaliy mashg'ulot*

- an'anaviy lokal cholg'u ijrochilik uslublarini o'rganish;
- ijro ko'nikmasi va malakasini egallash;

---

[1] Mamadaliev F. Intizoring eslagil....- T., 2014. 10-bet.

[2] Pedagogik atamalar lug'ati. prof. R.Jo'raev va boshq.- T.: "Fan". 2008. 78-bet.

- yakkaxon va jamoa (ansamblь) bo‘lib ijro etishni o‘zlashtirish;

- izchil mashq va repetitsiya.

D) *Faoliyat turlari*

- an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha aniq repertuarga ega bo‘lish;

- turli musiqa tanlovlarida ishtirok etish;

- an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligini targ‘ibot qilish.

Bu metodikaga asoslanish musiqa ta’limi tizimida an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligini kutilgan darajada o‘zlashtirish imkonini beradi. Chunki bu yo‘nalish hozirgi zamon musiqa san’atini rivojlantirishning innovatsion asoslaridan biridir.

**Mustahkamlash uchun savollar**

1. Respublika musiqa ta’lim tizimi qanday printsiplarga asosan tashkil qilingan?
2. Musiqa ta’lim tizimiga qanday xususiyatlar xos?
3. Musiqa ta’lim tizimida an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligini o‘zlashtirish metodikasini nimalar tashkil qiladi?

## 4.2 Oliy musiqa ta’limi tizimida G‘anijon Toshmatovning g‘ijjak cholg‘u ijrochilik mahoratini o‘zlashtirish usullari

O‘zbekiston musiqa ta’limi tizimi nazariy va amaliy samaradorlikka yo‘naltirilganligi bilan noyob tizim hisoblanadi. Shu sababli bu tizimda barcha masalalar qatorida o‘zbek an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligi ijrochiligi asoslarini, jumladan, O‘zbekiston xalq artisti G‘anijon Toshmatovning (1913-1994) G‘ijjak cholg‘u ijrochilik mahoratini o‘zlashtirish imkoniyatlari kengligini ta’kidlab o‘tish joiz.

G‘anijon Toshmatov o‘zbek lokal cholg‘u ijrochiligining Farg‘ona-Toshkent yo‘nalishiga va bu yo‘nalishning Andijon hududiga mansub san’atkor bo‘lib, o‘ziga xos g‘ijjak cholg‘u ijrochilik mahoratiga ega. XX asrning 40-50-yillarida g‘ijjak cholg‘usi takomillashtirilib, uning zamonaviy turlari yaratilgach an’anaviy

ijrochilikning ba’zi usullari iste’moldan chiqa boshladi. Bu hol G‘anijon Toshmatov mansub katta avlod san’atkorlarini mudom tashvishlantirib kelgan. Jumladan, shu avlod vakillaridan biri O‘zbekiston xalq artisti Fattohxon Mamadaliev (1623-1999) yozgan edi: “Sim, ipak, kapron iplar tortilib chalinadigan cholg‘ularning bir xususiyati bor, u ham bo‘lsa sozning unsurlaridan har qaysisi o‘zining ma’lum *joyiga* qo‘yilsa to‘g‘ri chiqadi... G‘ijjak ilgari uchta simga ega bo‘lib, (rekonstruktsiyadan keyin – N.Q.) to‘g‘ri xarrak *qiyshaytirib* qo‘yildi. Buning oqibatida pardalar oralig‘ida simlarda bir-biridan *farqlanib*, ya’ni har xil bo‘lib qoldi”.[1] Bu kamchilikni G‘anijon Toshmatov ham yaxshi bilar bilar edi. Shu sababli u kishi ikki narsaga amal qilgan: 1) xalq ustalari yaratgan g‘ijjak cholg‘usini amalda qo‘llash; 2) ijroda qadimiy pardalar qonuniyatiga amal qilish. San’atkor cholg‘uni faqat skripka cholg‘usining sozlanishi (kvinta)ga moslab sozlagan emas, aksincha, asarlarning xususiyatlariga mos ravishda sozlagan. Bunga uning ijrosidagi kuylarning magnit yozuvlari dalildir.

Musiqa ta’limi tizimida G‘anijon Toshmatovning g‘ijjak cholg‘u ijrochilik mahoratini o‘zlashtirish *usullari* ko‘p. Bu borada avvalo aniq *o‘quv dasturi va rejasiga* ega bo‘lish taqozo etiladi. Shu ma’noda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan quyidagi variantga e’tibor bering:

*1-jadval*

**G‘anijon Toshmatovning g‘ijjak cholg‘u ijrochilik mahoratini o‘rganish**

(Namunaviy dastur)

| t/r | Mavzular | Mashg‘ulot (soat hisobida) | |
|---|---|---|---|
| | | amaliy | |
| 1 | G‘anijon Toshmatovning hayoti va faoliyati | 2 | 1 |
| 2 | O‘zbek an’anaviy lokal cholg‘u ijrochiligi xususiyatlari va G‘anijon Toshmatov | 2 | 2 |
| 3 | G‘anijon Toshmatovning ijodiy merosi | 2 | 3 |

[1] Mamadaliev F. Intizoring eslagil....- T., 2014. 19-bet.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 4 | G‘anijon Toshmatov yaratgan asarlarni o‘rganish | 2 | 4 |
| 5 | G‘anijon Toshmatov ijro etgan asarlarni o‘zlashtirish | - | 5 |
| 6 | G‘anijon Toshmatovning ijrochilik uslubini o‘rganish | 2 | 6 (ijro) |
| 7 | Yakuniy kontsert | - | 2 |
| **jami** | | 10 | 24 |
| | | **34 soat** | |

Mazkur namunaviy dastur amaliyotga qo‘llab ko‘rilganda kutilgan samarani berdi: O‘zbekiston davlat konservatoriyasining g‘ijjak sinfi talabalari ustoz san’atkorning ijrochilik mahoratini tez va chuqur o‘zlashtirdi.

Mashg‘ulotlarning maxsus kurs, qo‘shimcha ta’lim turlarini tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi va ularda nazariy hamda amaliy uyg‘unlikka rioya qilish tavsiya etiladi. O‘rganish jarayoni yakka tartibda va jamoa bo‘lib o‘zlashtirishga asoslanish samarali hisoblanadi. Imkon qadar G‘anijon Toshmatov ijro mahoratini yakka tartibda o‘rganishga ustuvor ahamiyat berish kerak. Bizningcha, G‘anijon Toshmatov ijro uslublarini o‘zlashtirgan sozandalarni voyaga etkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu bilan ikki natijaga erishiladi:

1) G‘anijon Toshmatov ijodiy-ijro mahoratining davomiyligi saqlanadi;
2) Yosh sozanda-mutaxassis o‘ziga xos ijro uslubi bilan qurollantiriladi.

Ustoz san’atkorning ijro mahoratini o‘zlashtirishda quyidagicha yo‘l tutish samarali hisoblanadi:

- San’atkor hayoti, faoliyati va ijodi to‘g‘risida aniq tushunchaga ega bo‘lish;
- Ustoz ijro etgan asarlarni uning ijro uslubida o‘zlashtirish;
- San’atkor yaratgan asarlarni yangicha talqinlarda ijro etish:
- Muvaffaqiyatga erishga sozandalarni rag‘batlantirib borish.

Bunday yondoshuv ustoz san'atkorning ijro mahorati uchun kalitga ega boʻlishdir.

Gʻanijon Toshmatovning ijro mahoratini oʻzlashtirishda uning oltin fond va arxivlarda saqlanayotgan ijro manbalariga e'tibor berish kerak. Bunda san'atkorning cholgʻuni sozlashdan tortib, ijro usullarigacha diqqat qilish lozim.

Ustoz san'atkor bilan bevosita muloqotda boʻlgan shogirdlari va izdoshlari hozirgi kunda qizgʻin faoliyat yuritmoqda. Ular bilan muloqotda boʻlish san'atkorning ijro mahoratini oʻzlashtirishda muhim omillardan hisoblanadi.

Oʻzbekiston xalq artisti Gʻanijon Toshmatovning ijro mahoratinimusiqa ta'limi tizimida oʻrganish an'anaviy lokal cholgʻu ijrochiligini, jumladan, an'anaviy gʻijjak cholgʻu ijrochiligini rivojlantirishdagi muhim omillardan biridir.

## Mustahkamlash uchun savollar

1. Gʻanijon Toshmatov gʻijjak cholgʻu ijrochiligida qaysi yoʻnalishga amal qilgan?
2. Ustoz san'atkorning ijro mahoratini oʻrganishda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. San'atkorning ijro mahoratini oʻzlashtirish sozandaga nima beradi?

## G‘ANIJON TOSHMATOVNING HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATIGA OID FOTOLAVHALAR



G‘anijon Toshmatov rafiqasi Hafiza aya bilan (1988 y.).



G‘anijon Toshmatov askiyachilar davrasida.

Chapdan o‘ngga, yuqorida: S.Xo‘jayev, G‘.Toshmatov, S.Muhitdinov, Oxunjon qiziq.

Pastda: A.Umrzoqov, Yusufjon qiziq Shakarjonov.



Uyg‘ur xalq ansambli.



Xalq cholg‘ulari orkestri sozandalari bilan

Pastki qatorda: D.Zokirov (chapdan ikkinchi), X.Izomov, M.Yunusov, G‘.Toshmatov, O.Hotamov.



G‘.Toshmatov maqomchi san’atkorlar davrasida.

Chapdan o‘ngga: H.Rajabiy, O.Otaxonov, J.Raximov, O.Alimaxsumov, G‘.Toshmatov, T.Qodirov, Sh.Ergashev, I.Malakov, I.Katayev.



Yu.Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli.






G‘.Toshmatov shogirdlari bilan.



“Dutorchi qizlar” ansambli (1989 y.).



G‘.Toshmatov shogirdlari Z.Suyunova hamda Z.Rahmatullayevalar bilan.



G‘.Toshmatov xalq artisti Tamaraxonimning qutlovlarini qabul qimoqda.



G‘.Toshmatov O‘zbekiston xalq artisti Ergash Karimov tabrigini qabul qilmoqda



G‘.Toshmatov O‘zbekiston xalq shoiri Turob To‘la bilan.

## G‘ANIJON TOSHMATOV IJRO ETGAN ASARLARDAN NAMUNALAR

# SURNAY NAVOSI

G‘.Toshmatov ijrosidan
N.Qodirov notaga olgan

Og‘irroq




tr
tr
tr
tr

***

# NASRI SEGOH II

G'.Toshmatov ijrosidan
Q.Umarov notaga olgan

M.M. ♩ = 102




tr
tr


tr
tr


tr
rit.

***

# NASRI SEGOH

G'.Toshmatov ijrosidan
Q.Umarov notaga olgan







***

# NASRI SEGOH UFORI

G'.Toshmatov ijrosidan
Q.Umarov notaga olgan

M.M. ♩ = 130





***

# IROQ

(Surnay yo‘li)

G'.Toshmatov ijrosidan
N.Qodirov notaga olgan




mf
p
p
pp

***

# NAVO
## (surnay yo'li)

G'.Toshmatov ijrosidan
N.Qodirov notaga olgan




ff
mf
f
p
rit.
p
pp

# NAVO

G'.Toshmatov ijrosidan
N.Qodirov notaga olgan




cres.
mf
cres.
mf
f


p
cres.


cres.
p
rit.
pp

***

## G'ANIJON TOSHMATOV YARATGAN ASARLARDAN NAMUNALAR

# QORA KO'Z

G'.Toshmatov musiqasi
N.Qodirov notaga olgan




rit.

***

# KO'NGULSAN

G'.Toshmatov musiqasi
N.Qodirov notaga olgan



# GULJAMOL

G'.Toshmatov musiqasi
N.Qodirov notaga olgan




tr
tr
tr
tr
rit.

# FIG‘ONKIM

G'.Toshmatov musiqasi
N.Qodirov notaga olgan





***

# ISTADIM

Navoiy g‘azali
G‘.Toshmatov musiqasi




lam e-li - da yo‘q tu-rur mut-loq va-fo,
Vah-ki um - ri ul-cha yo‘q tur
so - g‘i nib_ yor is - ta dim.
Shayx bir - la xo-na-qoh - din
chun yo-rug‘ - liq top-ma dim,
Dayr pi-ri xiz-ma ti - g‘a ku-yi xan - mor
is - ta dim. Ey Na-vo - iy,
chun ra-fi - - qi top-ma-dim bu qis-sa-din,
O‘z ni be - kas - lik ba-lo - si - - g‘a gi-rif - tor
is - ta-dim. Qon yu tib, um - ri
molto rit.
ja - hon, ah - li-da bir yor ic - ta dim._

Qon yutib, umri jahon ahlida bir yor istadim,
Lekin ul kamroq topildi, garchi bisyor istadim.

Kimgakim jonim fido aylab sogi‘ndim yor erur,
Ermas erdi yorliqda chin vafodor istadim.

Bilmadim olam elida yo‘qturur mutloq vafo,
Vahki umri ulcha yo‘qtur sog‘inib yor istadim.

Shayx birla xonaqohdin chun yorug‘luq topmadim,
Dayr piri xizmatig‘a kuyi xanmor topmadim.

Ey Navoiy, chun rafiqi topmadim bu qissadin,
O‘zni bekaslik balosig‘a giriftor istadim.

***

# O‘ZBEKISTON SERQUYOSH DIYOR

M.Kariyev she'ri
G‘.Toshmatov musiqasi






Diyorimsan nuru-gulga cho‘milgan,
Qay so‘z bilan ta’rif etay madhingni.
Vodiydursan go‘zallikka ko‘milgan,
Faxr bilan quvnab kuylay baxtingni.

Bir o‘lkasan hamisha bahor,
O‘zbekiston serquyosh diyor.

Oq dengizmu yo bepoyon paxtazor
Osmon o‘pgach u oq oltin tog‘laring.
Balki jannat degan makon shu erur,
Shirin-shakar sharbat to‘la bog‘laring.

Oltin qo‘llar saxovati, mehnati
Bu o‘lkaga baxt etibdi go‘zallik.
Qardoshlikning buyuk kuchu-qudrati
Qo‘shiq kabi oshar bunda boqishlik.

Bir o‘lkasan hamisha bahor,
O‘zbekiston serquyosh diyor.

# QIZ UZATDIK, YOR-YOR

G.Jo‘rayeva so‘zi
G‘.Toshmatov musiqasi




lol qol - sa lar.
Ke lin - chak ning ha rir e- kan oq ro‘ mo - li, yor - yo ray,
Hi lol bo‘ lilb jil - va- la nar gul ja- mo - li,
Ha zil - la - shib ro‘ mo - li- ni as - lo tort- mang,
yor - yo ray Ke lin_ bo‘l-gan bi lar ke lin_ ah - vo- li- ni,
yor - yo ray, Ke lin_ bo‘l-gan bi lar ke lin_ ah - vo - li- ni.
Ku-yov kel di, ku yov, kel- di,
ku - yov kel - di, yor - yo- ray, Zin - hor de mang,
qiz ol - ga- ni bi rov kel- di, Yil- lar ku tib,_
gul lar tu tib dil- do- ri- ni, yor - yo ray, Diy- do- ri- ga




Baxtli zamon kelgandayo davron suray, yor-yor,
Shoshmang qizlar qaydan kelar navo surnay, yor-yor,
Tezroq yuring dugonajon to‘y bazmiga, yor-yor,
Kelinposhsha davrasidan bir aylanay, yor-yor.

Gulzormi bu, yal-yal yonar gul kosalar, yor-yor,
Nurzormi bu, oydek suzar raqqosalar, yor-yor,
Ko‘zim olgan xon atlasmu yo kamalak, yor-yor,
Hayron bo‘lmang gar yigitlar lol qolsalar, yor-yor.

Kelinchakning harir ekan oq ro‘moli, yor-yor,
Hilol bo‘lib jilvalanar guljamoli, yor-yor,
Hazillashib ro‘molini aslo tortmang, yor-yor,
Kelin bo‘lgan bilar kelin ahvolini, yor-yor.

Kuyov keldi, kuyov keldi, kuyov keldi, yor-yor,
Zinhor demang, qiz olgani birov keldi, yor-yor,
Yillar kutib, gullar tutib dildorini, yor-yor,
Diydoriga yetishmoqqa, shunqor keldi, yor-yor.

Sevgisini sep qilib qiz uzatdik, yor-yor,
Yor husnini zeb qilib uy tuzatdik, yor-yor.

# ONAJONLAR

G'.Toshmatov musiqasi




Xor
chiq-sa, tu-gal shar man - da, Er am-ri-dan
yakkaxon
chiq-sa, tu-gal shar man - da, Qa fas - lar-da
qol-di go‘ - yo par-ran - da - yo, par-ran - da,
O-jiz max luq de di, tu tib ki shan - da,
Ne bo‘h ton-lar - dur, bu ne bo‘h-ton - lar.
Ne bo‘h-ton-lar - dur, bu ne bo‘h-ton - lar.
Naa xush dav-ron kel-di, o‘z-ga
hol o‘l-di, hol o‘l - di, A-yol o-dam so‘-zi
sar - ax-bor o‘l - di, Bad-gu-mon-lar shar-mi-so -
-ru lol o‘l - di, A-yol bu ha-yot-ga




Ayol yorti demishdir oyatlar,
Haramlarda tutdi sarxush xonlar,
Bazmlarda sochi parishonlar,
Ko‘kka uchib nolayu afg‘onlar,
Oh, bag‘ri qonlardur, bag‘ri qonlar.

Emish ayol erga cho‘ri, qul banda,
Er amridan chiqsa, tugal sharmanda,
Qafaslarda qoldi go‘yo parranda,
Ojiz maxluq dedi, tutib kishanda,
Ne bo‘htonlardur, bu ne bo‘htonlar.

Na xush davron keldi, o‘zga hol o‘ldi,
Ayol odam so‘zi saraxbor o‘ldi,
Badgumonlar sharmisor-u, lol o‘ldi,
Ayol bu hayotga xo‘p jamol o‘ldi,
Soz zamonlardur, soz zamonlar.

# YONIMDASAN

Yu.Hamdam so'zi
G'.Toshmatov musiqasi






Xush kelibsiz, mehmonim,

Sog‘ingan mehribonim,

O‘zing yigit polvonim.

Kel yana yonimdasan,

Yon emas, jonimdasan.

Sensiz yolg‘iz o‘tgan chog‘,
Ishq hijroni kezgan chog‘,
Dil go‘yo bog‘bonsiz bog‘.
Kel yana yonimdasan,
Yon emas, jonimdasan.

Uchrashuvni ko‘zlayman,
Suhbatingni so‘zlayman,
Kelmay qolsang izlayman.
Kel yana yonimdasan,
Yon emas, jonimdasan.

Yo‘limni ravshan etib,
Dong‘ing ellarga ketib,
Qo‘ling quyoshga yetib.
Mard qaytding, yonimdasan,
Yon emas, jonimdasan.

Sen kelding ko‘nglim tindi,
Quyosh dilga berkindi,
Yallalar boshla endi.
Kel yana yonimdasan,
Yon emas, jonimdasan.

***

# ZEBO QILAYIN DEB

G‘.Toshmatov musiqasi




Tempo di valse
gliss.


molto rit.

***

# QOSHING QAROSI BALO

G‘.Toshmatov musiqasi





***

# KO'NGLUM SANDADUR

G'.Toshmatov musiqasi







***

# ISTAR

G‘.Toshmatov musiqasi

**Shoshilmay**




1.
2.

***

# GULGUN DIYORIM

G‘.Toshmatov musiqasi

**Sekin**




1.
2.

# OY BO‘LG‘USI

G‘.Toshmatov musiqasi

**O‘rtacha**





***

## Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati


1. Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor-xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirish poydevoridir.- T. : “O‘zbekiston”. 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi.-T.: “O‘zbekiston”. 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // “Xalq so‘zi” gazetasi 2017 yil 9 avgust soni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // “Xalq so‘zi” gazetasi 2017 yil 18 noyabrь soni.
5. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. –T. : “O‘qituvchi”. 1997.
6. Rajabov I. Maqomlar.-T.: “San’at”. 2006.
7. Qodirov N. G‘ijjak ijrochiligida mahalliy uslublar.-T.: “Musiqa”. 2016.
8. Музыкальный энциклопедический словарь. Главный редактор Г.В.Келбдыщ.-М.: “Советская энциклопедия”. 1990.
9. Ибрагимов О.А. Фергана-Ташкентские макомы.-Т.: “MEDIA LAND” .2006.
10. Гафурбеков Т. Фольклорные истоки узбекского профессионального музыкального творчество.-Т.,1984.
11. Матякубов О. Фараби об основых музыки Востока.-Т.: “Фан”.1986.
12. Matyakubov O. O‘zbek klassik musiqasi. 1-2-kitoblar.-T.: “Yangi asr avlodi”. 2015.
13. Nazarov A. Farobiy va ibn Sino musiqiy ritmika xususida (mumtoz iyqo’ nazariyasi).-T., 1995.
14. Братья Чистоты, О музыке.// Музыкальная эстетика стран Востока.-М., 1967.
15. I.Akbarov, Yu.Kon. O‘zbek xalq cholg‘u musiqasi. // O‘zbek xalq musiqasi. To‘plovchi va notaga oluvchi Yunus Rajabiy. Tom III.-T.: O‘zdavbadiiynashr.1959.
16. Ahmadiy. Sozlar munozarasi. // Muborak maktublar. Matnlar.- T., 1987.
17. Петросянц А.Школа игре гиджака.-Т., 1960.

18. Felisiant R, Aliev S. G‘ijjak darsligi.-T., 1961.
19. Toshmuhammedov M. G‘ijjak darsligi.-T., 1995.
20. Azizboev S. An’anaviy g‘ijjak ijrochiligi.-T., 2005.
21. Umarov Q. An’anaviy g‘ijjak ijrochiligi.-T., 2014.
22. Nazirov Q. G‘ijjakda o‘zbek milliy kuylarini o‘zlashtirish.-T., 2011.
23. Nazirov Q. G‘ijjak sinfi darsligi.-T., 2013.
24. Petrosyants A. Instrumentovedenie.-T., 1990.
25. Qosimov R. An’anaviy ijrochilik.-T., 2007.
26. Suyunova Z. G‘anijon Toshmatov.-T., 2009.
27. Alimbekov K., Ahmedov M. O‘zbekiston xalq sozandalari.-T. : O‘zdavbadiiynashr.1959.
28. Jabborov A. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari.-T. : “Yangi asr avlodi”. 2004.
29. Беляев В. Музыкальные инструменты Узбекистана.-М. : Музгиз. 1933.
30. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir.-T.: O‘zdavbadiiynashr.1963.
31. Matyakubov O. Maqomot.-T, 2004.
32. Mamadaliev F. Intizoring eslagil...-T., 2014.
33. G‘ulom Zafariy. Asarlar.-T.: “Info kapital grup” 2018.
34. Pedagogik atamalar lug‘ati. prof. R.Jo‘raev va boshq.- T.: “Fan”. 2008.

**GLOSSARIY**

**Maqom ijrochiligi** - qadimdan Ustozdan shogirdga uzatib kelinayotgan, qat’iy tartib va ijro usullariga cholg‘u va ashula ijrochilik yo‘li. Maqom ijrochiligining mumtoz va zamonaviy shakllari mavjud. Bunda mumtoz maom ijrochiligi deganda qadimgi davrlardan XIX asr oxiriga qadar bo‘lgan muddat nazarda tutiladi, zamonaviy davr esa XX-XXI asrlarni qamrab oladi. Chunki XX asrdan boshlab maqom ijrochiligi ilmiy asoslarga tayana boshladi.

**Maqom lokal cholg‘u ijrochiligi** – o‘zbek maqom cholg‘u ijrochiligining Farg‘ona-Toshkent (1), Buxoro-Samarqand (2), Xorazm (3), va Surxondaryo-Qashqadaryo (4) hududiy lokal yo‘nalishlari. Lokal cholg‘u ijrochiligida umumiy mushtaraklik bo‘lsa-da, lekin ular quyidagi jihatlardan farqliklarga ega: 1) lad-intonatsion tuzilish; 2) metro-ritmik o‘ziga xoslik; 3) forma-obrazlilik. Lokal cholg‘u ijrochilikda ustoz san’atkorlarning ijodiy maktablari shakllangan. Masalan, G‘anijon Toshmatov ijodiy ijrochilik maktabi.

**Ansambl** – ikki va undan ko‘p sozandalar yoki xonandalar guruhi. Ansambl ijrochiligi lokal cholg‘u ijrochiligining yashovchanligini ta’minlab kelmoqda. Ansamblning havaskorlik va professional shakllari mavjud.

**G‘ijjak lokal cholg‘u ijrochiligi** – G‘ijjak cholg‘u ijrochiligining lokal ijrochilik yo‘nalishlarida o‘ziga xos usullar va uslublarda namoyon bo‘lishi. Bunda ayniqsa Andijon g‘ijjak cholg‘u lokal ijrochiligi salmoqli o‘ringa ega.

**Alt** (“baland”) – takomillashtirilgan cholg‘ularning baland va yo‘g‘on ovozli turi. Masalan: G‘ijjak alt cholg‘u sozi.

**Bastakor** (“ish bog‘lamoq”) – an’anaviy usulda xalq ohanglari asosida kuy yaratuvchi san’atkor. XX asrning ko‘p sozandalari ayni paytda, bastakor bo‘lishgan. Masalan: sozanda O‘zbekiston xalq artisti G‘anijon Toshmatov (1913-1994) yuzlab o‘ziga xos kuylar bastalagan. “Istadim”, “O‘rgilay”, “Alla” kabi kuylar shular jumlasidandir.

**Bozgo‘y** (“takrorlash”) – SHarq mumtoz an’anaviy cholg‘u musiqa shakllarining o‘zgarmay va muntazam takrorlanuvchi kuy tuzilmasi. Maqom san’ati ijrochiligida keng qo‘llaniladi.

**Vokal musiqasi –** kuylash uchun mo‘ljallangan va she’riy matn ohangiga mos musiqa.

**Daromad** (“kirish”) – musiqa asarining bosh qismi, bo‘lagi. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari musiqasining bosh qismi.

**Dinamika** (“kuch”) – tovushlarning kuchli yoki kuchsiz ijrosi.

**Intonatsiya** (“qattiq aytaman”) – musiqa va nutqda o‘ziga xos ohang.

**Musiqa ta’limi –** tizimlashgan musiqiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayoni, uning natijasi.

**Namud (“namoyon bo‘lish”) –** maqomlar sho‘‘basi kuy *mavzusining* muayyan sho‘‘ba *avjida* ishlatilishi. Masalan: Shashmaqomda 11 namud mavjud.

**Parda –** cholg‘u ijrochiligida torli cholg‘ularda belgilab qo‘yilgan, chap qo‘l barmoqlari bilan bostladigan o‘rni.

**Peshrav** (“oldinda yuruvchi”) **–** 1) Ashula yo‘llarida cholg‘u muqaddima; 2) Shashmaqom va Xorazm maqomlarida cholg‘u qism nomi; 3) Kuy rivoji vositasi, uslubi.

**Saqil** (“og‘ir, vazmin”) **–** mumtoz musiqada past va yo‘g‘on tovushning ifodasi.

**Sozanda –** cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va mahoratga ega mutaxassis.

**Takt** (“his”) **–** musiqiy lavha, asarning kuchli va kuchsiz hissasiga asoslangan o‘lchov birligi va o‘ziga xos shakli.

**Tovush –** jism tebranishidan paydo bo‘lgan to‘lqinning ohangli sadosi.

**Tovushqator –** biror musiqadagi barcha tovushlarning tartiblashgan majmuasi.

**Xona –** musiqada kuyni ifodalovchi *tugal jumla*, u maqom san’atida kuy hajmini kengaytirib beruvchi tuzilma hisoblanadi.

**Shtrix (“chiziq”) –** musiqa cholg‘ularida tovush chiqarish uslubi. Masalan: legato-bog‘lab, detashe-ajratib, stakkato-uzib-uzib va h.k.

**Etyud** (“o‘rganish”) – ijrochilik mahoratini oshirish uchun yaratilgan ko‘nikmaviy musiqa asari.

**G‘ijjak (“g‘ipchak”)** – to‘rt torga ega torli-kamonli cholg‘u. An’anaviy va takomillashtirilgan turlari mavjud. O‘zbekistonda Andijon, Buxoro, Xorazm kabi g‘ijjak ijrochilik maktablari shakllangan.